

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT
ISHLARI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 009

BBK: 71.26

T 87

TURAXANOV ABDUMALIK ABDUHAMIDOVICH
“MILLATLARARO MOJAROLARNI BARTARAF ETISHDA
MADANIYATNING ROLI”

5A610401-Madaniyatshunoslik

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Tarix fanlari doktori,
professor A.A.Mavrulov



TOSHKENT – 2016

Fakulteti: Magistratura
Kafedra: San'atshunoslik va madaniyatshunoslik

O'quv yili: 2014-2016

Magistratura talabasi:
Turaxanov Abdumalik Abduxamidovich
Ilmiy raxbar: tarix fanlari doktori, professor
Abduhalil Mavrulov
Mutaxassisligi: 5A610401
"Madaniyatshunoslik"

MAGISTERLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Milliy va millatlararo munosabatlarga taalluqli bo'lgan masalalar jamiyatimiz taraqqiyotida xamma vaqt muxim o'rin egallab kelgan va hozir ham shunday bo'lib kelmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki mustaqil davlatimizning sobit qadam rivojlanishi, uning istiqboli ko'p jixatdan milliy va millatlararo munosabatlarning uyg'unligi bilan bevosita bog'liqdir. Prezident I.Karimov quyidagi fikrlarni bildirib, "Hotirjamlik - millatlararo va elatlar ichidagi o'zaro aloqalar, muammolar strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda va mintaqada davlatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yishda alohida e'tibor berishni talab qilmoqda",¹ zeroki "Biz nimani istaymiz - ona Vatanimizda tinchlik va omonlik bo'lishini istaymiz. Boshqalarga ham shuni tilaymiz".² deb takidlagan edilar.

Ishning maqsadi va vazifalari: Millatlararo mojarolarni bartaraf etishda madaniyatning rolini quyidagi massalalarda tahlil qilamiz.

Birinch: "Millat" va "Millatlararo totuvlik" tushunchasining mazmuni taxlil qilamiz va bayon etamiz.

Ikkinchi: O'zbekistonda millatlararo totuvlik tizimini shakllantirishning huquqiy asoslari taxlili va bayon etamiz.

Uchinchi: I.Karimov asarlarida millatlararo mojarolarni hal etish masalalari tahlil qilamiz.

¹ Karimov.I.A O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida : havfsizlikga tahtid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T. : "O'zbekiston", 1997 y, 76-77 betlar.

² Karimov.I.A Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish-eng oliy saodatdini. – T. : "O'zbekiston", 2015 y, 279 betlar.

To'rtinchi: Madaniyat va millatlararo totuvlik umumbashariy qadriyat sifatida o'rganish va uni tahlil qilamiz;

Beshinch: Sovet mustabid tizimi sharoitida millatlararo mojarolarning paydo bo'lishi sabablari va oqibatlari taxlili qilamiz;

Oltinchi: O'zbekistonda millatlararo mojarolarni hal etishda milliy madaniy markazlarning o'rni va ahamiyati o'rganamiz va taxlil qilamiz;

Yetinchi: O'zbekiston fuqarolarida millatlararo mojarolarni hal etishda "Omaviy madaniyat" (shovinizm, millatchilik, mahalliychilik) ga qarshi chiquvchi imunitetni shakllantirish masalalari asoslaymiz.

Tadqiqot obekti va premeti: Millatlararo mojarolarni oldini olishga oid tushunchalarni shakllantirish jarayoni obekt va millatlararo totuvlik va bag'rikenglik g'oyalariga oid tushunchalarni shakllantirish shart-sharoitlari, shakllari metodlari, vositalari va yo'llari predmet.

Tadqiqot uslublari va uslubiyati: pedagogik tahlil, xronologik tahlil, tarixiy taqqoslash, empirik metodlar, test so'rovlari, kuzatish, suhbat, umumlashtirish, muvofiqlashtirish, tajriba-sinov, hujatlarni o'rganish.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi: jamiyat ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda millatlararo totuvlik oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy asoslari o'rganiladi va Millatlararo tolerantlik g'oyalarga yo'naltirilgan o'quv jarayoni samaradorligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tatbiqi: Dissertatsiya ishda bayon etilgan g'oyalar, xulosa, taklif va tavsiyalar asosida aholi o'rtasida ayniqsa turli millatli, elatli jamoalarda ma'naviy – ma'rifiy tadbirlarni kuchaytirishda, millatlararo totuvlikni, barqarorlikni shakllantirishda yordam beradi.

Ish tuzilishi va tarkibi: dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, umumiy xulosa, taklif va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi ____ betni tashkil etadi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari: Magistrlik dissertatsiya mazmuni va tadqiqot natijalari yuzasidan 2 ta ilmiy maqola, jumladan 2015 yil "San'at va Madaniyat masalalari yoshlar nigohida" Institut magistrantlarinig III an'anaviy ilmiy-nazariy konferensiyasida "Millatlararo mojarolarni oldini olishda madaniyatning o'rni" nomli maqola va 2016 yilda "Nomoddiy madaniy merosni ta'lim tizimiga tatbiq etish" mavzusidagi Respublika ilmiy seminarida "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi" nomli maqola chop etildi.

Ilmiy rahbar:

Magistrant



t.f.d.prof. A.A.Mavrulov

A.A.Turaxanov

**THE MINISTRY OF CULTURE AND SPORTS AFFAIRS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
UZBEKISTAN STATE INSTITUTE OF ARTS AND CULTURE**

Faculty: "Culturallogy"

Postgraduate: A. Turaxanov

Chair: "Art and Culture"

Scientific adviser: doc.prof.A.A.Mavrulov

Academic year: 2015-2016

Specialty: 5A610401 Culturallogy

ANNOTATION ON MASTER'S DEGREE DESSERTATION

The importance of the theme: Issues related to national and ethnic relations plays an important role in the development of the society all the time and nowadays also so. This is not surprising, of course. The prospects for an independent state in the development of a fixed step theoretical directly related to the combination of national and inter-ethnic relations. President Islam Karimov expressed the following thoughts, the serenity of ethnic groups and the bilateral relations, issues of strategic importance in the future and wants to give special attention to the establishment of interstate relations in the region ", indefinitely "We know what we want - we want to be the native land of peace and tranquility. Others that wish." he noted.

The aim of the dissertation: Interethnic could amount the role of culture in the elimination of the mass of the following analysis.

The tasks of the dissertation:

- We will analyze and explain the content of the concept of "Nation" and "ethnic harmony"
- Analysis and clear of the legal framework for the formation of a system of inter-ethnic harmony
- analysis of the issues of inter-ethnic conflict in the works of I. Karimov
- we will analyze it peace as a universal value and culture

- analysis of the causes and consequences of ethnic conflicts the conditions of the Soviet totalitarian system
- we analyze and learn the role and importance of national cultural centers the resolution of ethnic conflicts in Uzbekistan

The subject and object of the dissertation: The process of formation of the concepts related to the prevention of ethnic conflict is the object, an understanding of the ideals of peace and tolerance in the formation conditions, the methods of formation ways and means is the subject .

Research methods and methodology: pedagogical analysis, chronological analysis, historical comparison of experimental methods, testing, surveys, observations, interviews, compilation, coordination, pilot-testing and study the documents.


The level of scientific novelty of the research: ensuring the sustainability of the community learn the theoretical basis for the formation of the concept of inter-ethnic harmony and the effectiveness of the educational process aimed at ethnic tolerance

The implementation and the practical significance of the research: Dissertation work, ideas, conclusions, suggestions and recommendations on the basis of the population, especially among the various nations, and communities in promoting the spiritual and educational activities, the formation of inter-ethnic harmony and stability.

The structure of the work: the work consists of introduction, three chapters, conclusion, list of used literature.

Scientific adviser:

Postgraduate:



doc. prof.A.A.Mavrulov

A.Turaxanov

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. “Millat”va “Millatlararo totuvlik” tushunchalarining mazmun-mohiyati.....	11
1.1. “Millat” tushunchasining mazmun-mohiyati	11
1.2. “Millatlararo totuvlik” tushunchasining mazmuni.....	18
I bob bo'yicha xulosa.....	23
II-Bob Mustaqil O'zbekistonning millatlararo munosabatlarining nazariy va huquqiy asoslari.....	26
2.1. O'zbekistonda millatlararo totuvlik tizimini shakllantirishning huquqiy asoslari.....	26
2.2. I.Karimov asarlarida millatlararo mojarolarni hal etish masalalari.....	40
2.3. Madaniyat va millatlararo totuvlik umumbashariy qadriyat.	
II bob bo'yicha xulosa.....	61
III-Bob O'zbekistonning millatlararo mojarolarni bartaraf etishdagi tajribasi.....	62
3.1. Sovet mustabid tizimi sharoitida millatlararo mojarolarning paydo bo'lishi sabablari.....	62
3.2. O'zbekistonda millatlararo mojarolarni hal etishda milliy madaniy markazlarning o'rni va ahamiyati.....	69
3.3.O'zbekiston fuqarolarida millatlararo mojarolarni hal etishda “Omaviy madaniyat” (shovinizm, millatchilik, mahalliychilik) ga qarshi chiquvchi imunitetni shakllantirish masalalari.....	72
III- bob bo'yicha xulosa.....	80
XULOSA	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	87

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Yurtimizda hukum surayotgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik, o'zaro hurmat muhitini saqlash, huquqiy savodxonlikni, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizning siyosiy madaniyati va faolligini oshirishni ta'minlashda fuqorolik jamiyati institutlarining rolini yanada kuchaytirish muhim vazifa bo'lib qolmoqda".¹

Milliy va millatlararo munosabatlarga taalluqli bo'lgan masalalar jamiyatimiz taraqqiyotida hamma vaqt muhim o'rin egallab kelgan va hozir ham shunday bo'lib kelmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki mustaqil davlatimizning sobit qadam rivojlanishi, uning istiqboli ko'p jihatdan milliy va millatlararo munosabatlarning uyg'unligi bilan bevosita bog'liqdir.

Sobiq ittifoq davrida ro'y bergan qiyinchiliklar, bir talay chigalliklar, o'ta keskinlashib ketgan ziddiyatlar mamlakatimizdagi ahvolni behad murakkablashtirdi, kishilar turmushini mushkullashtirdi, oshkorolik va demokratiyani, iqtisodiy rivojlanishni tang ahvolga solib qo'ydi. Hozirgi paytda jamiyatimizning barcha sohalarida o'tkazilayotgan islohatlarning taqdiri, mamlakatimizning kelajagi ko'p jihatdan millatlararo munosabatlarni qanday tarkib topishiga, uzoq davrlar davomida yig'ilib qolgan muammolarni zudlik bilan hal etilishiga bog'liq. "Shu tufayli deydi Islom Karimov, - millatlararo va elatlar ichidagi o'zaro aloqalar muammolari strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda va mintaqada davlatlararo munosabatlarni yo'lga qo'yishda alohida e'tibor berishni talab qilmoqda".²

Mustaqillik nafaqat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, balki millatlararo munosabatlarni hozirgi zamon talablariga mos rivojlantirishni ham talab qiladi. Mustaqillik keng qamrovli islohatlar, demokratiya va oshkorolikni

¹ Karimov I. A. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliy saodatdir. - T. : "O'zbekiston", 2015-y, 275- bet.

² Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida : xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T. : "O'zbekiston", 199 -y, 76-77 betlar.

rivojlantirish, milliy masalaga, milliy tillar va madaniyatlar, milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarga, o'tmish tariximiz, madaniy merosga, diniy qadriyatlarga, xullas, milliy va millatlararo munosabatlarga bevosita taalluqli bo'lgan murakkab muammaolarni hal qilish uchun keng yo'l va istiqbol ochib berdi. Buning uchun zarur bo'lgan shart-sharoit va imkoniyatlarni yaratib berdi.

Mustaqillik milliy masalaga yangicha yondashishni, siyqasi chiqib ketgan usullardan qat'iyan voz kechishni kun tartibiga qo'ydi. Milliy va millatlararo munosabatlar masalasi bo'yicha mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish, ularni keltirib chiqargan omillarini, ularni chuqurlashib ketishi sabablarini aniqlash va bartaraf etish yo'llarini belgilashdan, ularni yangicha siyosiy va falsafiy tafakkur asosida nazariy va amaliy jihatdan idrok etishdan iboratdir.

Jamiyat taraqqiyotining istiqboli, insonlarning baxt-saodati, farovon hayot kechirishi millatlar, elatlar, barcha ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi hamkorlik, hamjihatlik munosabatlarning takomillashuvi bilan uzviy bog'liqdir. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda ikki yuz yigirma to'qqiz davlat, o'n ikki mingdan ortiq ijtimoiy etnik birliklari mavjud. Sayyoramizdagi davlatlar asosan ikki turdan ko'p elatli va bir elatli davlatlardan tarkib topgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasida yuzdan ortiq millatlar va elatlar yashaydi. Xitoy, Hindiston, AQSH, Kanada va boshqa davlatlarda ham ko'plab ijtimoiy etnik birliklarning vakillari yashaydi. O'zbekiston Respublikasi ham ko'p elatlar davlatlar sirasiga kiradi. Unda 1989-yili o'tkazilgan aholi ro'yxatiga muvofiq 126 millat va elatlar yashaydi. Hozir esa 136 taga yetdi. Yer yuzida, yuz milliondan ortiq kishidan tashkil topgan millatlar ham shuningdek, hatto yuz kishidan iborat millat ham bor. Mavjud millatlar va elatlarning 1600 tasi Osiyo va Afrika mamlakatlarida qariyb 100 tasi, rivojlangan mamlakatlarda 250 tasi XX asr oxirlarida mustaqillikni e'lon qilgan. Ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo'lgan ijtimoiy etnik birliklar birlaridan o'zining turmush tarzi, turli tarixi, madaniyati, urf-odati, iqtisodiy rivojlanishi darajasiga ko'ra farq qiladi. Har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat'iy nazar, eng avvalo, o'zining milliy ongi va psixologiyasi

ifodalanadi. Muayyan jamiyatda istiqomat qiluvchi har bir millatning ma'naviy qiyofasi o'sha jamiyatning moddiy, ijtimoiy, tarixiy sharoitlariga qarab o'zgarib boradi. Millatning ruhiy ma'naviy qiyofasi mavjud ijtimoiy ong shakllarida o'z ifodasini topadi. Ijtimoiy ong progressiv shakllari har bir millat kishilarining ruhiy, ma'naviy qiyofasi asta-sekinlik bilan o'zgarib borishiga olib keladi. Mana shu o'zgarish jarayonlari tarixiy bosqichda progressiv hamda regressiv bo'lishi mumkin. Bunday tarzda ijtimoiy ong shakllarining o'zgarishlari, o'z navbatida, ko'p millatli davlatlar negizida turadi. Xalqlarning milliy o'zligini anglash jarayoniga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi muqarrardir. Tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, agar mavjud ijtimoiy etnik guruhlar o'rtasida hamjihatlik, an'anaviy uyg'unlik vujudga kelmagan bo'lsa, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jadallashadi. Millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma'naviy-aqliy boyishi uchun yaxshi manba bo'lib xizmat qiladi. Aksincha, ko'p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda totuvlik, hamjihatlik, uyg'unlik, hamkorlik, barqarorlik mavjud bo'lmasa, ijtimoiy taraqqiyotning ravonlashishiga katta putur yetkazilishi tayindir. Shuning uchun ham ko'p millatli davlatlarda istiqomat qiluvchi ijtimoiy etnik birliklar o'rtasidagi munosabatlarga ehtiyotkorlik, ziyraklik bilan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida milliy o'zlikni anglashning o'sishi tufayli o'z davlatchiligiga ega bo'lmagan etnik guruhlar tomonidan milliy ozodlik harakatlari kelib chiqishi tabiiy holdir. Milliy ozodlik harakatlarining asosiy maqsadi - mustamlakachilik zulmini yo'q qilish. Mustaqil milliy davlatlar tuzish, millatlarning o'z taqdirini o'zi hal qilishga erishishi, chet el davlatlarda hukmronligini tugatish, milliy qadriyatlarini, odamlarning o'ziga xos xususiyatlari va an'analarini saqlab qolishga qaratilgan ob'yekt ehtiyojidir. "Har qanday millat u naqadar kichik bo'lmasin insoniylikning bo'lagidir va har qanday milliy birlik-uning tili. Madaniy va boshqa xususiyatlarining yo'q bo'lib ketishi yer yuzidagi shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish va unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi

bo'lishi kerak va bu maqsad, birinchi navbatda, ushbu etnik guruhlarini o'z ichiga oluvchi har bir alohida davlatning vazifasidir”³ - deydi Islom Karimov.

O'zbekiston xalqining etnik tarkibida tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Shu bilan bir vaqtda respublikamiz hududida o'z madaniyati va an'anasiga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashab turibdi. Markaziy Osiyoning tub xalqlari tabiati boshqa millatlarning vakillariga nisbatan keng fe'llikning mavjudligi bilan ajralib turadi. “Xalqimiz, - deydi I.A.Karimov, - va davlatimizning tarixiy xotirasida antisemitizm, irqchilik va o'zga millatga, o'zga xalqqa mensimasdan, hurmatsizlarcha munosabatning boshqacha shakllari namoyon bo'lgan sharmandali sahifalari yo'qligi bilan faxrlanadi”⁴. Millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam ko'rsatish O'zbekiston xalqiga xos fazilatlardandir. Bu xalqimiz tinchligining asosiy manbaidir.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, Markaziy Osiyoning bir xalqini boshqasiga qarama-qarshi qo'yish, milliy ustunlik mavjudligi to'g'risidagi afsonalarni tarqatish yo'lidagi har qanday urinishlarning oldini olish lozim. Mintaqamizda barqarorlik, tinchlik va osoyishtalikni saqlab turish uchun milliy siyosat yurgizishda quyidagilarni esdan chiqarmaslik kerak:

- tarkib topgan davlat chegaralarini ularning daxlsizligini tan olish;
- mustaqillik tufayli xalqlar milliy o'zligini anglashning rivojlanishi orqaga qaytmaydigan jarayon ekanligini hisobga olish;
- mintaqada yashayotgan xalqlarning o'zaro yaqinligi millatlararo munosabatlarda ijobiy ta'sir ko'rsatishini inobatga olish;

³ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997, 73-74 betlar.

⁴ I. A. Karimov . O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafsizlikka tahdid, barqororlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997, 81- bet.

- mintaqada integratsiya jarayonlari ham barcha xalqlar ko'p millatli aholining davlat va milliy manfaatlarining eng maqbul darajada uyg'unlashtirishiga asoslangan holda rivojlanishini ta'minlash.⁵

Mustaqillik davrida xalqimiz azaldan orzu qilib kelgan millatlararo totuvlik, do'stlik, hamjihatlik, tinchlikka erishgan ekanmiz, endilikda bizning oldimizda turgan dolzarb vazifa - ana shu oliy ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni qo'ldan bermay, avaylab-asrab, ko'z qorachig'iday ehtiyot qilib saqlab qolish ustida doimiy harakat qilishimiz darkor. Bunga respublikamizda yashovchi har bir inson yoshidan, millatidan qat'iy nazar, o'z hissasini qo'shmog'i kerak. Buning uchun Milliy g'oya atrofida jipslashib, xalq bilan bamaslahat, bir tan-u bir jon bo'lib, halol mehnat qilib mustaqillikni yanada mustahkamlashimiz lozim.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqot ishining maqsadi millatlararo mojarolarni oldini olishda madaniyatning o'rni va ahamiyatini tadqiq qilishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'zbekistonda millatlararo totuvlik tizimini shakllantirishning huquqiy asoslarini bayon etish;
- I.Karimov asarlarida millatlararo mojarolarni hal etish masalalarini tahlil qilish va o'rganish;
- Madaniyat va millatlararo totuvlikni umumbashariy qadriyat sifatida o'rganish;
- Sovet mustabid tizimi sharoitida millatlararo mojarolarning paydo bo'lishi sabablarini tahlil qilish;
- O'zbekistonda millatlararo mojarolarni hal etishda milliy madaniy markazlarning o'rni va ahamiyatini tadqiq etish;
- O'zbekiston fuqarolarida millatlararo mojarolarni hal etishda "Ommaviy madaniyat" (shovinizm, millatchilik, mahalliychilik)ga qarshi chiquvchi imunitetni shakllantirish maqsadida takliflar ishlab chiqish.

⁵ Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolat. -T.: "Mehnat", 2000, 108-bet.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda millatlararo totuvlik muammosi, avvalo, milliy g'oya bilan bog'liq holda o'rganilgan. Ushbu muammo millatlararo munosabatlarga bag'ishlangan bir jihat sifatida tadqiq etilgan.⁶

Millatlararo munosabatlar bilan bog'liq masalalar, milliy madaniyatlar rivojining turli jihatlari, milliy til, urf-odat va an'analar taraqqiyoti bilan bog'liq masalalar ko'plab olimlarimiz asarlarida tadqiq etilgan. G'.Najimov, Q.Xonazarov, X.Shayxova, S.Shermuhamedov, A.Yunusov, E.Yusupov, U.Qoraboyev kabi olimlarimizning ilmiy tadqiqotlari bunga misol bo'la oladi.⁷

Millatlararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari va uning rivojiga ta'sir etuvchi omillar bilan bog'liq masalalar esa S.Otamurodov, M.Nishonov kabi olimlarimiz asarlarida tahlil qilingan.⁸ R.Abdulatifov, Yu.Bromley, M.Djunusov, V.Tishkov kabi olimlarning etnoijtimoiy birliklarning mohiyati tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlari ham mavzu doirasida ko'tarilgan masalalarni chuqurroq anglab yetishga xizmat qiladi.⁹ Shuningdek, mavzu doirasida o'rganilayotgan muammolarni tadqiq etishda A.Toynbi, E.Toffler, E.Fromm, S.Xantington kabi ijtimoiy-siyosiy fikrning yirik namoyandalari asarlari ham katta ahamiyatga ega.¹⁰

Professor Rahbarxon Hamidovna Murtazayevaning "Millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik tarixi" ilmiy maktabi millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik tarixiga oid muhim va hamisha dolzarb masalalar majmuini

⁶Rahmonov D.N. Milliy munosabatlar va ularning siyosiy-huquqiy boshqarilishi (Hozirgi zamon amaliyotidan) -T.: Fan, 1990; Bobojonova D. Millatlararo munosabatlardagi barqarorlik. -T.: Universitet, 1995; Millatlararo hamjihatlik-barqarorlik omili. -T.: DITAF, 1999 va b.

⁷ Карабаев У.Х. Традиционное народное творчество: проблемы возрождения и развития. – Т.: Фан, 1991; Наджимов Г.Н. Народные традиции и культура. –Т.: Ўзбекистон, 1992; Хоназаров Қ. Тил ва дил. -Т.: Ўзбекистон, 1991; Шермухамедов С. На языке единства. -Т.: Ўзбекистон, 1991; Юнусов А.М Демократизация общества и взаимодействие на тсионального и общечеловеческого в развитии духовных ценностей. Автореф. Дисс. докт. филос. наук. -Т.: 1995; Юсупов э.Ю., Туленов Ж., Гофуров З. Миллий масала бўйича фалсафий суҳбатлар. -Т.: Фан, 1990 ва бошқ.

⁸ Атамуратов С. Натсиональное самосознание и интернатсиональное воспитание. -Т.: Ўзбекистон, 1992; Нишанов М.Н. Обновление духовной жизни натсий. -Т. Фан, 1991.

⁹ Абдулатипов Р.Г. Человек. Натсия. Общество. -М.: Политиздат, 1991; Бромлей Ю. Очерки теории этноса. - М.: Наука, 1983; Джунусов М.С. Натсионализм в различных измерениях. -Алма-ата, 1990; Тишков В.А. О природе этнического конфликта // Свободная мысл. -1993.-№ 4 ва бошқ.

¹⁰ Тойнби А. сивилизация перед судом истории. Сборник.-М.: Рудолф, 2002; Фромм э. Бегство от свободы. Человек для себя.-Мн.: Поппури, 1998; Хантингтон С. Столкновение сивилизаций? // Полис, 1994. №1; Toffler A. The Third Wawe.-N.Y.: va boshq.

o'rganmoqda. Professor R.H.Murtazayeva xorij mamlakatlari Qozog'iston (Almati 1996, 2008, 2009, 2011, 2012, 2014), Italiya (Boloni, 1996), Rossiya (Saransk, 2007, Tomsk 2012), Xitoy (Pekin, 2008), Shveysariya (Davos, 2013), AQSH (Nyu-York, 2013) hamda O'zbekistonda o'tkazilgan o'nlab xalqaro konferensiyalarda faol qatnashib, millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik tarixi hamda shu sohadagi hozirgi eng dolzarb masalalar yechimiga ilmiy jamoatchilikning diqqat-e'tiborini qaratayotganligi juda ham muhim ahamiyatga molikdir.

Lekin, shunga qaramay millatlararo totuvlikni jamiyat taraqqiyoti muammosi bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganish sohasida kam ishlar amalga oshirilgan. Yoki bu borada dastlabki tadqiqotlarga qo'l urilmoqda deyish mumkin. Bu sohada hali ko'pgina ishlarni amalga oshirish zarurligini hisobga olsak, mazkur mavzuni o'rganish, mamlakatimizda turli millat vakillari o'rtasida milliy mojarolarni oldini olishda xizmat qiladi.

Tadqiqot ishining ob'yekti va predmeti. Mazkur ishning ob'yekti sifatida O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi turli millat vakillariga bo'lgan munosabat tanlab olindi. Uning predmetini esa millatlararo munosabatlardagi yangi tizimni qaror topishi jarayonlarini o'rganishdan kuzatilgan maqsad aholining barcha ijtimoiy guruhlari, ayniqsa, yoshlar o'rtasida shunday munosabatlarning holati haqida yaxlit va to'liq tasavvur olishdan iborat.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot ishida amalga oshirilgan yangiliklar shunday iboratki, respublikamiz dunyo ilm-fanida keyingi vaqtda erishilgan yutuqlar asosida millat tushunchasining ma'no-mazmuni yangicha tahlil qilingan, millatlar ijtimoiy taraqqiyotiga qarab shakllangan, inqirozga uchragan, yana qaytadan tiklanyotgan millatlararo munosabatlardagi o'zbek model tahlil qilingan, o'zbek modelining ustuvorligi asoslangan ko'p millatli mamlakatda turli milliy madaniyatlar ravnaqi, yagona Vatan g'oyasi tahlil qilingan. Natija shundan iboratki, yuqorida sanalgan masalalardagi kamchilik, nuqsonlar ko'rsatildi, xolisona ular haqida fikr bildirildi.

Mazkur tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, qo'llanma sifatida shuningdek, mavzuga oid tadqiqot ishlarini olib borishda, ma'ruza matni va boshqa o'quv materiallarini yaratishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, tadqiqotdan "Maxsus kurs" lar, "Falsafa", "Ijtimoiy falsafa", "Madaniyatshunoslik", "Ma'naviyat asoslari" kabi fanlardan madaniyat, millatlararo munosabatlar, globallashuv jarayonlari va omillari kabi mavzular bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Mavzuning yoritishda bugungi kunda ilmiy izlanishlar olib borishda qabul qilingan haqqoniylik, xolislik, davriylik kabi tamoyillarga tayanildi.

Natijalarning joriy qilinishi. Tadqiqotning asosiy xulosalari muallifning respublika miqyosda o'tkazilgan ilmiy anjuman va seminarlarda aprotatsiya qilindi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asosi. Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mavzuga doir normativ hujjatlar, qabul qilingan qonunlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlaridan manba sifatida foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning asarlari va soha olimlarning ilmiy konsepsiyalari tashkil etadi.

Tadqiqotning metodlari. Ob'yektivlik, tizimlilik, analiz va sintez, germenevtik, qiyosiy tahlildan iborat.

Dissertatsiyaning tuzilishi. dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 8 ta paragraf, umumiy xulosa, taklif va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi ____ betni tashkil etadi.

I bob. “Millat” va “millatlararo totuvlik” tushunchalarining mazmun-mohiyati

1. 1. Millat tushunchasining mazmun-mohiyati.

“Millat” tushunchasi eng qadimiy atamalardan biri bo'lib, asrlar davomida odamlarning diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. Bunday holatni tushunish mumkin, chunki hayotimizning har qadamida biz millatlarga, ularning farqlariga, tillariga, urf-odatlariga, turmush tarzlariga va boshqa jihatlariga duch kelamiz. Va tabiiyki, har birimizda “millat o'zi nima, qachon va nima sababdan paydo bo'lgan, olamda nechta millat bor, ularning o'zaro farqlari nimalardan iborat?” kabi o'nlab savollar tug'iladi.

“Millat” so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan, chunki islom dini mintaqalar bo'ylab VII-VIII asrlardan boshlab keng tarqalgandan so'ng arab tili islom dini olamining umumiy ilm-fan tiliga aylangan. Shu asrlar davomida o'zbek tiliga arab tilidan, ya'ni Qur'oni Karim va Hadis-u sharif tilidan minglab so'zlar kirib kelgan. Shularning biri “millat” so'zi edi.

Arab tilida “millat” so'zi o'tmish davrlarda “islom dinidagi xalq” ma'nosini bildirgan. Asrlar o'tmishi bilan “millat” so'zining ma'nosi asta-sekin o'zgargan.

Hozirgi davrda biz, millat deganda umumiy tilda so'zlashib, bir butun umumiy hududda istiqomat qilib turgan, birga iqtisodiy hayot kechiradigan, umumiy maydoni, ma'naviy va ruhiy muhitga ega kishilarning tarixiy shakllangan barqaror birligini tushunamiz.

Demak, millatning ta'rifi anchagina murakkab va qator omil hamda jihatlarini o'z ichiga oladi. Millat to'g'risida aniq va har tomonlama to'la ma'lumot olmoq uchun sakkiz amal ko'zda tutilishi kerak. Ular til, hudud, iqtisodiy hayot, madaniyat, ma'naviy, ruhiyat, tarix va barqarorlik.

Millat to'g'risida so'zlaganda, birinchi o'ringa umumiy til masalasi qo'yiladi. Chunki millat vakillari bir-birlarini tushunishlari, o'zlarning maqsadalarini aniqlashlari, bir fikr va qarorga kelishlari shart. Shu boisdan umumiy til masalasi, kishilar bir-birlarini tushunish vositasi masalasi muhim masala. Ammo, ma'lumki,

har bir til odatda turli hududiy shevalardan tashkil topgan. Shevalar umumiy milliy tilning shahobchalari va shoxlaridir. Ular umumiy milliy tilni inkor eta olmaydilar. Ba'zida shevalar bir-birlaridan juda jiddiy farq qiladilar (masalan, Xitoy va Olmon tillarida) va shevalarda so'zlashuvchilar bir-birlarini tushunmasliklari ham mumkin. Bunday holatda umummilliy adabiy til shakllanadi va shevalarda so'zlashuvchilar bu umumtilni bilishlari shart.

O'zbek millatini oladigan bo'lsak, bizning umumiy milliy tilimiz mavjud. Bu tilda Alisher Navoiy, Bobur ijod qilganlar va hozirgi zamon o'zbek yozuvchilari, shoirlari bu tilni yanada boyitmoqdalar. O'zbek tilida hududiy shevalar ko'p. Lekin, ularning o'zaro jiddiy emas, shu bois mamlakatimizning barcha viloyatlari aholisi vakillari bir-birlarini tushunishlariga xalaqit bermaydi, o'zbek millatining rivojlanishini tezlashtiradi.

Millatning ikkinchi belgisi yoki sifat alomati uning bir butun hududda istiqomat qilishidir. Bir butun yaxlit hudud kishilarning muloqatini yengillashtiradi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini osonlashtiradi. Hududning sifatlari va ko'rsatkichlari millatning rivojlanishiga, bu rivojlanishning sur'atlariga salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkin.

O'zbek millatining hududi jahonda eng qulay va serunum yerlardan biri deyish mumkin. Markaziy Osiyoning yengil o'zlashtiriladigan yerlari asosan O'zbekiston hududida joylashgan. Markaziy Osiyo davlatlari joylashgan yerlarning tarixiy shakllanishi shunday bo'lganki, hozirgi paytda, masalan, Qozog'iston yerlarining deyarli uchdan ikki qismi taqirlar va cho'l-u biyobonlar. Qirg'iziston hududining xuddi shunchasi dengiz sathidan, o'rta hisob bilan 1500 metrdan 4500 mertgacha balandlikda joylashgan, chorvachilik hamda yilqichilik qulay, ammo shahar madaniyatini rivojlantirishga noqulay yaylovlardir. Yon qo'shnimiz-jon qo'shnimiz bo'lmish Tojikistonda davlat hududining uchdan ikki qismida, ya'ni tik qoyalar, chuqur jarliklar va osmon o'par tog'lardan iborat. Asrlar davomida biz bilan yonma-yon yashab kelayotgan Turkmanlar davlati hududining deyarli sakson foizi Qoraqum cho'li va sahrolardir. Qo'shni davlatlardan farqli o'laroq,

O'zbekistonda butunlay boshqa nisbatni ko'ramiz: milliy hududimizning sakson foizi sug'oriladigan va lalmikor yerlardir, bog'-u rog'lar ko'rkida gullab yashnayotgan qishloqlar va shaharlardir.

“O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat” deganda Prezidentimiz, jumladan, O'zbekiston hududining qulayligi, unumliligi, tabiat tomonidan in'om etilgan boyliklarni ham ko'zda tutadi ¹¹.

Millatning o'ziga xos uchinchi xislati uning-iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan bog'liq qismlardan iboratligidandir. Bu masala ikki xil tarzda qo'yilishi mumkin.

Birinchidan, milliy hudud qismlaridan iborat bo'lishi mumkinki, qismlardan har biri iqtisodning ma'lum sohasi bo'yicha ixtisoslashib, boshqa qismlarga o'z mahsulotini beradi va ulardan o'z ehtiyojiga tegishli narsalarni oladi. Bunday holatni deyarli barcha millatlarda kuzatish mumkin. Masalan, O'zbekistonning ba'zi qismlari chorvachilik, ba'zi qismlari mevachilik yoki boshqa soha bo'yicha mutaxassislashgan. Shu asosda har bir millat hududida, hududning tovar ayirboshlash mavjud. Bunday ayirboshlashni faqat davlat yo'lidan rasmiy tovar ayirboshlash tarzida faraz qilish yetarli emas. Bu jarayonning ko'pgina qismi bevosita aholi tomonidan kundalik hayot ehtiyojlari bilan shug'ullanish jarayonida amalga oshadi. Bunday jarayon va hayot kechirishga moyillik tabiiydir, chunki bunday holatda iqtisodiy chiqimlar nihoyatda kamaytiriladi. Uning eng “yetuk ko'rinishi” - o'zini o'zi ta'minlovchi natural xo'jalikdir. Ammo, amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday buzuqlikka intilish yil sayin siqib chiqarilmoqda, millat qismlarining va millatlarning o'zaro bog'lanishi kengayib va mustahkamlanib bormoqda.

Millatning tarixan tashkil topgan barqaror birlik sifatida o'ziga xos to'rtinchi belgisi uning milliy madaniyati, umumiy xulq-atvori va milliy mentalitetining mavjudligidir. Millatning bu xislatlari osmondan tushmaydi, tayyor holda qandaydir g'ayri-tabiiy kuch tomonidan millatga in'om etilmaydi. Milliy

¹¹ Karimov I.A. O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat. –T.: “O'zbekiston”, 1992, 52-54 betlar.

madaniyat millatning xulq-atvori, milliy fikr yuritish usuli, ya'ni mentaliteti millatning shakllanish jarayonida ba'zida bir o'n yil, ba'zida bir necha asr davomida yuzaga keladi. Bu xislatlar va o'ziga xos tomonlarning tez yoki sekin shakllanishi tarixiy sharoitlarga bog'liqdir.

Ma'lumki, madaniyat moddiy va ma'naviy qismlardan iborat. Ishlab chiqarish jarayoni kishilar yashab turgan muayyan hududga bog'liq bo'lgani sababli, hududning jug'rofiy shart-sharoitlari, o'ziga xos tomonlari moddiy ishlab chiqarish madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Ammo "madaniyat" deganda, odatda, birinchi navbatda, ma'naviy madaniyat, ya'ni adabiyot, san'at, fan, falsafa, xalq ijodi va boshqalar tushuniladi. Ma'naviy madaniyat atrof olamni bilish, aqlan o'zlatirish, uning to'g'risida ma'lum xulosaga kelish jarayonidir. Atrof olam barchamiz uchun umum makondir. Va, ayni vaqtda bu makon o'z tuzilishi, tabiati bo'yicha har bir mintaqada boshqa-boshqa. yer sathining rang-barangligi masalaning bir tomoni. Uning boshqa, ikkinchi tomoni shundan iboratki, atrof olamni, tabiatni, jamiyatni anglash, tushunish shu asosda ularning eng umumiy qonun va tamoyillarini belgilash har bir xalqda, hattoki, har bir odamlar o'ziga xos bo'lishi mumkin. Chunki olam, jamiyat va insonda shu qadar turliki, ularni har bir inson turlicha qabul qilishi, tushunishi va tushuntirishi ham tabiiydir.

Milliy madaniyatning shakllanishida, atrof-muhit, jug'rofiy omillar, millatning tarixi, uning boshdan kechirgan voqealari va jarayonlari, unga atrof qo'shni xalqlarning ta'sirini anglashda, shu millat mutafakkir va jamoat arboblari muhim rol o'ynaydilar. Bu qoida o'zbek millati milliy madaniyatining shakllanishi jarayonida yaqqol bilindi va bilinmoqda. O'zbek milliy madaniyati mavhum, qandaydir noma'lum muhitda yuzaga kelgan va shu muhitda boyimoqda, rivojlanmoqda. Millatimizning har bir ashulasida, rivoyatida, hikoya va dostonida u yashab turgan muhit o'z aksini topadi, ishtirok etadi.

Milliy madaniyatning shakllanishi jamiyatdan tashqarida emas, balki u bilan birga, u orqali amalga oshadi. Demak, milliy madaniyatni tushunmoq uchun

millatning tarixini, uning barcha past-u balandliklarini to'la bilmoq zarur. O'zbek millatining madaniyati Amudaryo va Sirdaryo oralig'i hamda uning atrofidagi yerlarning tarixi, bu serunum yerlar, bog'-u rog'lar, go'zal vodiylar, ishlov berilgan million gektarlab dalalar, o'nlab va yuzlab shaharlar, madaniyat markazlari, ziyo maskanlarini yaratish niyati, ularni dushman hamlasidan himoya qilish va boyitish jarayonida shakllangan.

O'zbek milliy madaniyatining yana bir diqqatga sazovor joyi shundan iboratki, u boshqa millat madaniyatlar, shu jumladan, qo'shni xalqlar madaniyatlaridan har bir vaqt uzilib qolgan emas, ularning eng yaxshi xislat va xossalarini qabul qilib olgan, o'ziga singdirgan. Bu jarayon hozirgi davrda yanada kengaymoqda: turkmanlarning gilam to'qishdani betakror san'ati, qozoqlarning chorvachilikdagi ko'nikmalari va boshqa xalqlarning hayotining turli sohalaridagi yutuqlari xalqimiz tomonidan o'rganilgan va o'rganilmoqda. Rudakiy, Jomiy, Sa'diylar tojik do'stlarimiz uchun qanchalik hurmatli bo'lsa, o'zbeklar uchun shu darajada qimmatlidir. O'zbek milliy madaniyatiga Abay Qo'nonboyev, Muxtor Avezov, Mahtumquli va To'xtag'ul ta'sir ko'rsatib kelganlar. "Manas" esa Markaziy Osiyo xalqlari og'zaki og'zaki ijodining eng yuksak cho'qqisi bo'lib qoladi.

Millat to'g'risida so'zlar ekanmiz, uning xulq-atvori degan iborani ham ishlatish mumkin. Millatning xulq-atvori uning muomala va uning ruhiy xususiyatlari majmuini, millatga odat bo'lib qolgan, takrorlanib turadigan xatti-harakatlarini, uning ra'yini, fe'l moyilliklarini bildiradi. Millatning xulq-atvori, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, millatga tayyor holda berilmaydi, balki millatning tarixiy asta-sekin shakllanish sharoitida yuzaga keladi. Jahon xalqlarining hayotini o'rganib, ularni qiyoslar ekanmiz, birlari qiziqqon, jo'shqin, serzavq ekanligini, ba'zilari esa, aksincha, bosiq, sovuqqon, vazmin va og'ir ekanligini ko'ramiz. Albatta, sovuqqon millat orasida qiziqqon kimsalar ham uchrab qoladi. Va, aksincha, qiziqqon millatlar orasida sovuqqon kishilar ham uchrab turadi. Ammo, bundan "ha unday bo'lsa millatlarni ajratish qiyin ekanda"

degan xulosa kelib chiqmaydi. Bu masalaga keng yondashilsa, millatlarning ma'lum bir kichik guruhi emas, balki katta guruhlar qiyoslansa, biz millatlar naqadar turli ekanining shohidi bo'lamiz. Biz shuning uchun ham bu narsaga e'tiborni jalb etmog'imiz lozimki, millatlarning ko'ngli, fe'li naqadar nozik ekanligi ana shu xulq-atvori orqali, ayniqsa, aniq bilinadi. O'tmishda hukmron bo'lgan mafkuraning milliy masalada zaif tomoni millatlarning xulq-atvori, milliy ongi, milliy iftixorini inobatga olmaslik edi. "Har bir insonning, millatidan qat'iy nazar asosiy istagi qornini to'yg'azish, yaxshi kiyinish, turar joyga ega bo'lish, o'z vaqtida tekin tibbiy yordam olish. Shu talablar qondirilsa, hech bir kishi millatini eslamaydi. Shuning uchun milliy masala o'z ahamiyatini yo'qotadi", deb o'rgatardi, u mafkura. Holbuki, xuddi shu birlamchi ehtiyojlar qondirilgandan so'ng, inson o'zining kim ekanligini, bu millatning insoniyat oldidagi xizmatlari nimadan iborat ekanligini surishtira boshlaydi.

Yuqorida aytilgan fikrlardan tushunish mumkinki, jamiyat qanchalik taraqqiy etgan bo'lsa, unda ilm-fanning, ma'naviyat va mafkuraning rivojlanishi uchun qulay vaziyatlar yaratilgan bo'lsa, o'sha jamiyatda milliy his, milliy iftixor, milliy o'zlik, milliy ong va milliy o'z-o'zini anglash shu darajada yuqori, boy va rang-barang bo'ladi. Rivojlangan jamiyatning rivojlanmagan jamiyatdan farqi rivojlangan jamiyatda shu hislarning yo'qligida emas, balki madaniyatli kishilar oqilona fikr yuritib, bu hislarni old qatorga chiqarmasligidadir.

Millat to'g'risida so'zlaganda yana bir ko'zda tutilishi lozim bo'lgan narsa shundan iboratki, millat tarixan tashkil topgan birlikdir. Millatni ko'rsatma, qaror yoki buyruq asosida yaratib bo'lmaydi. Unga xos bo'lgan til birligi, hudud birligi, iqtisodiy hayot birligi, madaniyati, urf-odat huquq birligi chetdan in'om etilgan tayyor narsa emas. Ular asta-sekin millatning amaliyoti jarayonida yuzaga keladi. Ana shu jarayonda milliy birlik hisi shakllanadi.

Millatning asosiy belgilaridan biri uning barqaror birlik ekanligidandir. Ya'ni har qanday revolyutsiya, inqilobiy o'zgarishlar, millatga nisbatan zo'ravonlik siyosati va majburiylik tamoyili hech bir vaqt millatni tarqatib yuborolmaydi.

Aksincha, bunday tadbirlar millatni yanada jipslashtiradi. Buning yorqin misolini 1943-1944-yillarda Sobiq ittifoqda milliy hududlardan majburan ko'chirilgan xalqlar misolida ko'rdik. Bular chechenlar, Qrim tatarlari, qalmoqlari, qorachoylar, ingushlar va bolqorlar edilar. Istibdod tuzumidan faqat fuqarolargina emas, balki millatlar ham doimiy iztirobda bo'lib, qo'rqish kerak edi. Ittifoqning fashistlar Germaniyasiga qarshi urushda dushman bilan hamkorlikda ayblab, bu xalqlarni majburan ko'chirib yubordilar. Ular borib joylashtirilgan yerlarda ko'chirilgan xalqlarga nisbatan davlat ko'rsatmasi bilan shunday muomala tashkil qildiki, ular asta-sekin XXI asrning boshigacha davrda qirilib yo'q bo'lib ketishlari kerak edi. Majburan ko'chirish yillarida bu xalqlar parcha-parcha qilinib, katta hududlarga tarqatib tashlangan bo'lsa ham milliy his, milliy g'oya, milliy Vatan bilan vidolashmadilar, o'z Vatanlariga qaytishlariga ishondilar. Ularga nisbatan "Sotsialistik Vatanga xiyonat qildilar" deb ayb qo'yish butunlay noo'rin va asossiz edi, chunki chechenlar, Qrim tatarlari, ingushlar, qalmoqlar, bolqorlar, qorachoylar orasidan urushda to majburiy ko'chirishgacha bo'lgan davrda o'nlab qahramonlar, minglab mohir jangchilar yetishib chiqdilar. Undan tashqari, shu narsani ham ko'zda tutmoq kerakki, bu jang insoniyat tarixidagi eng shafqatsiz urushlardan biri bo'ldi va bu urushda har bir millatning ichida ham qo'rqoqlar, xoyinlar dushman tomoniga qochib o'tganlar topildi. Fashistlar tomonidan general Vlasov "Rus ozodlik armiya" sini tashkil qilganini aytib o'tish yetarli.

Istibdod davrida amalga oshirilgan "Milliy siyosat" har bir millatning ruhiy va ma'naviy darg'alari bo'lgan ilg'or kishilarning "millatchi", "yozuvchi sinf vakili", "o'tmishda bol'sheviklarga nisbatan muholif tashkilotda a'zo bo'lgan", "ota-bobolari boy bo'lgan", "og'machi", "kommunistik g'oyalarni izchil himoya qilmagan", "sovet tuzumini ulug'lash o'rniga o'tgan zamonlarga bag'ishlangan tarixiy asarlar yozadi" kabi turli bahonalar bilan qamoqqa olar, surgun, badarg'a qilar edi. Istibdod tuzumining bunday tadbirlaridan maqsadi millatlarni quvvatsizlantirish, ruhiy kuchini qirqish, ma'naviy ilhomdan judo etish edi, shu yo'sin millatlarning qo'shilib kelishini va millatlar o'rniga rus millati

boshchiligida sovet xalqi atalmish “yangi ijtimoiy-siyosiy birlik” ni yuzaga keltirish edi. Bunday birlik butun dunyoni sotsialistik asosda o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi deyilardi.

Xullas tom ma'noda o'zbek millati mustaqillik yillarida yildan-yilga barqaror rivojlanib ketmoqda, bu mustaqillikning buyuk sharofatidir.

1.2. “Millatlararo totuvlik” tushunchasining mazmuni

Milliy istiqlol mafkurasininig asosiy g'oyalari va millatlararo totuvlik tushunchasi bir-biri bilan uzviy bog'liq. Bu bog'liqlikni shunda ko'ramizki g'oya, maqsadlar nafaqat ayrim insonlar, muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, davlat, jamiyatning ehtiyojlari, maqsad muddaolari, manfaatlarini, orzu intilishlarini o'zida ifoda etibgina qolmasdan, shu jamiyatda yashayotgan, turli millat va xalqlarning manfaatlariga, ularning o'zaro munosabatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.¹²

O'zbekiston mamlakatining maqsadlariga nisbatan shu mamlakatda yashayotgan har bir millat vakili befarq emas. Shu ma'noda millatlararo hamjihatlikni, o'zaro totuvlikni anglab olish talab etiladi.

Muammoni bevosita tahlil etishni, avvalo, "g'oya", "mafura", "jamiyat" "ijtimoiy taraqqiyot", "millat", "millatlararo hamjihatlik", "millatlararo totuvlik" tushunchalarining ma'no mazmunini ochishdan boshlash kerak.

"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari" nomli risolada "Insoniyat tarixi-g'oyalar tarixi" degan ibora ishlatilgan. Shu iboraning o'zida "g'oya" tushunchasiga ham ta'rif berilgan: "G'oya - inson tafakkurining mahsuli, milliy g'oya - millat taffakurining mahsulidir. Milliy g'oya-inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir."¹³

¹² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyilari. -T.: O'zbekiston, 2000, 9-bet.

¹³ O'sha manba, 9-bet

Ko'rinib turibdiki, "milliy g'oya" ga millat tafakkurining mahsuli sifatida qaralmoqda. Shu o'rinda ayrim mulohazalarni bildirish mumkin.

Birinchidan, bunday yondashuvga muayyan ma'noda qo'shilish mumkin, chunki u millat fikri, tafakkurining mahsuli sifatida to'g'ri. Shu ma'noda turli millat nomlari bilan bog'liq holda ham milliy g'oyani tushunish mumkin.

Bizningcha, shu atamani ko'p millatli davlatga yoki jamiyatga tatbiqan qaraganda qanday bo'ladi degan savol tug'ilishi tabiiy. Bundan tashqari o'zaro muloqotlarda ham shu savol ko'pchilikni, xususan, boshqa millatga mansub bo'lganlarni ko'proq qiziqtirmoqda. Ayrim hollarda milliy istiqlol g'oyasi bu faqat o'zbeklarning milliy g'oyasimi yoki boshqa millatlarga ham daxldormi?-degan tarzda qo'yiladi.

Ikkinchidan, milliy istiqlol g'oyasining mazmunini tushunishda, bugun sof bir millatli davlatlarni topish qiyin ekanini, ayni paytda, "ko'p millatli" lik omilini, ularni ham shu mamlakat, Vatanga daxldorligini alohida qayd etish lozim.

Uchinchidan, mamlakat muayyan millatning nomi bilan atalishini, demak, shu mamlakatning milliy tarkibida ustuvor ulushga ega bo'lgan, tarixan yashab kelgan va yashab kelayotgan, tub xalqlar, millatlarni ham nazarda tutadi va "O'zbekiston xalqi" atamasining ishlatilishida o'ziga xos ma'no bor. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida "O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi"¹⁴ degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.

Masalaga shu jihatdan yondashilsa, milliy istiqlol g'oyasi tushunchasining ikki muhim jihati namoyon bo'ladi va uning ma'no mohiyatini to'liqroq tushunish imkoniyatini beradi. Demak, milliy istiqlol g'oyasi, bu bir tomondan, o'zbek millati tarixi, ma'naviy qadriyatlariga tayanishni anglatadi; ikkinchi tomondan, milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston jamiyatining mafkurasi sifatida undagi "milliy" so'zi faqat bir millatni emas, balki butun bir mamlakatni, O'zbekiston jamiyati,

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2003, 8-modda

O'zbekiston xalqining maqsad va intilishlarini, qarashlarini o'zida mujassam etishini bildiradi.

Ko'rinib turibdiki, shuning uchun milliy istiqlol g'oyasini bir tomonlama tushunish yoki "milliy" so'zini noto'g'ri talqin etish noxolis xulosalar chiqarishga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida, millatlararo munosabatlarga, millatlar o'rtasidagi hamjihatlikka, totuvlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. "O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi-ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no va mazmunini belgilaydi. Har bir inson uchun (millatidan qat'iy nazar) muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi"

Bunda, quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim. Avvalo, milliy istiqlol g'oyasi O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi ekanini ta'kidlanmoqda; bundan tashqari, har bir inson uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etishga alohida e'tiborni qaratish lozim. Bu milliy istiqlol g'oyasining ham milliy, ham umuminsoniy negizga egaligini, o'zaro uyg'unligini bildiradi. "Vatan ravnaqi", "Yurt tinchligi", "Xalq farovonligi", "Komil inson", "Ijtimoiy hamkorlik", "Millatlararo totuvlik", "dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik)" nazarda tutiladi. Bu g'oyalar milliy va umuminsoniy qadriyatga aylangan va e'tirof etilgan. Bu g'oyalarni milliy istiqlol g'oyalari sifatida uning bosh g'oyasi erkinlik, ozodlik, obod va farovonlik bilan uyg'un tarzda turganligining o'zi mamlakatda yashayotgan har bir millatning maqsadlarini o'zida mujassam etadi. Bu g'oyalarda "millatlararo totuvlik" g'oyasining milliy istiqlol g'oyasining asosiy g'oyalaridan biri sifatida alohida qayd etilishi ko'p millatli bo'lgan O'zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega.

Umumiy ma'noda, millatlararo totuvlikka, hamjihatlikka O'zbekistonda asosiy maqsad sifatida qaralyapti. Chunki, milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadini amalga oshirishda millatlararo totuvlik, hamjihatlikka erishish asosiy omildir. Hamjihatlik, totuvlik bo'lmagan joyda ulug' maqsadlarga erishish qiyin

bo'ladi. Hamjihatlikka, millatlararo totuvlikka xizmat qilmaydigan g'oyani o'z navbatida bunyodkor g'oya deb bo'lmaydi. Bunday g'oyaning maqsadi ezgulikdan yiroq bo'lib, u millatlar o'rtasiga nifoq solishi mumkin. Shuning uchun ham 136 ga yaqin millat va elat vakillari yashayotgan O'zbekiston uchun millatlararo hamjihatlik va hamkorlikning qaror topishiga xizmat qiluvchi millatlararo totuvlik g'oyasi umuminsoniy mazmunga ega bo'lmoqda.

Endi millatlararo munosabatlarga qaytsak, millatlarning o'zaro munosabatlaridagi asosiy qoida - ularning siyosiy va huquqiy jihatdan tengligidir. Buyuk va yirik millatlarning oz soni va imkoniyatlariga ishonib, kichik millatlarga do'q-po'pisa qilib, qurol kuchi bilan zabt etish va bo'ysindirish niyatlari keyingi vaqtda Vetnam, Jazoir, Afg'oniston, Abxaziya, Checheniston, Iroq misollarida asossizligi va amalga oshmasligi isbotlandi. Sobiq SSSRning mamlakatda eng ko'p sonli millatga imtiyozlar tug'dirib boshqa millatlarni mohiyatan kamsitish siyosati to'la ravishda o'zini fosh qildi va o'n besh mustaqil davlatga bo'linib ketishining asosiy sabablaridan biri bo'ldi.

Demak, mamlakatlarning siyosiy va huquqiy jihatdan tengligini tan olish hozirgi zamon siyosatining zarur qonun qoidasi bo'lishi shart. Ammo ayni vaqtda hozirgi zamon iqtisodi millatlar, mamlakatlar orasida o'zaro hamkorlikni talab qiladi. Bunday hamkorlik ijtimoiy taraqqiyotning millatlar gullab-yashnashining zaruriy zaminidir. O'zbekiston ham shu yo'ldan borib, tobora jahon hamjamiyatiga integratsiyalashib bormoqda.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, insoniyatning ko'p ming yillik taraqqiyoti asosan uch narsada mujassamlashgan - umuminsoniy sivilizatsiya, bozor iqtisodiyoti va millatlar. Umuminsoniy sivilizatsiya jamiyat taraqqiyotining zamini, muhiti va asosidir. U shuning uchun ham, doimiy harakatda va rivojlanishdagi, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tayanadi, u asosida shakllanadi. Lekin bozor munosabatlarini amalga oshirib, hayotiy omilga aylantiradigan haqiqiy amaliy kuch millatlardir. Bu uch omil sivilizatsiya, bozor iqtisodi va millatlar bir-birlari bilan chambarchas uzviy bog'langan: birisiz ikkinchisi yoki uchinchisi bo'lishi

mumkin emas. Shunday ekan, hozirgi zamon insoniyat hayotini, jamiyat taraqqiyotini ta'min etmoq uchun millatlarning ravnaqi, gullab yashnashi va mustahkamlanishi tabiiy jarayondir.

Tan olib aytish zarurki, dunyoqarashdagi sotsializm mafkurasining ta'siri o'z-o'zidan yo'qolib ketmaydi. Jamiyat tarixini sinfiy kurashlar tarixi, turli tushunchalar, mafkuralar, nazariyalarning to'qnashuvi, murosasiz olishuvi sifatida yoritish va tarixga, jamiyatga shu nuqta'iy nazardan yondashish yagona to'g'ri qarash deb tushuntirish vaqti allaqachon o'tdi.

"Bizning tojik, turkman, qirg'iz, qozoq va o'zbeklarning tarixiy birligimiz, madaniy birligimiz, ma'naviy birligimiz, diniy birligimiz, bir so'z bilan aytganda chinakam insoniy birligimiz haqida ko'p gapirishning hojati yo'q, - deb yozadi I.A.Karimov. Xalqlarimizning azaliy birligi va bir-biriga intilishi har bir uyda, har bir oilada, har bir qishloqda va har bir shaharda yaqqol seziladi"¹⁵.

Demak, endilikda jamiyat taraqqiyoti yo'llarini qidirish va eng oqil yo'llarini topish hammani qiziqtiradi va u barchaning vazifasidir. Shunday ekan, har bir masalaning hal etilish yo'llari bo'yicha o'nlab takliflar tushishi tabiiydir. Maqsad esa aniq masalani hal etishning eng oqil yo'lini topish.

Siyosiy guruhlar, partiyalar va sinflar o'rtasida murosasiz raqobat davri hozirgi vaqtda demokratiyaning yangi ma'nosini tushunmaydigan jamiyat va davlatlarda bo'lishi mumkin. Mustaqil O'zbekiston bunday holatlardan holi. U demokratiya qonun qoidalari asosida rivojlanmoqda.

Milliy istiqlol g'oyasi "agressiv millatchilik", "millatparastlik", "milliy biqizlik" ni targ'ib qilish g'oyalari bilan murosas qila olmaydi, "buyuk davlatchilik shovinizmi", "kosmopolitizm" g'oyalariga nisbatan "millatparvarlik" "milliy bag'rikenglik" "milliy hamjihatlik", "millatlararo hamkorlik", "do'stlik", "millatlararo totuvlik" g'oyalarini qarshi qo'yish talab etilmoqda.

¹⁵ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. //Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild.-T.: O'zbekiston, 1996.-83b

"Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" konsepsiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Millatlararo hamjihatlik deganda, millatlarninigi madaniyati, urf-odati, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, umummaqsad yo'lida bir-birlarini tushunishlari, bir-birlarini hurmat qilishlari, birgalikda faoliyatda bo'lishlari, mushtarak maqsadlarni amalga oshirishda ularning hamkorligini tushunish mumkin.

Xullas, milliy istiqlol g'oyasi jamiyatimiz hayotida muhim o'rin tutadi. Milliy istiqlol g'oyasi miliy va umuminsoniy negizga asoslanishi tufayli O'zbekiston xalqining, o'zbekning ruhiyatini o'zida to'liq ifoda etadi.

"Millatlararo totuvlik" g'oyasi turli millatlar yashayotgan ko'p millatli O'zbekiston uchun ayniqsa muhim mezondir. U turli millatlarning maqsad va manfaatlarini ifoda etish bilan birga ularni jipslashtirib turadi va shu ma'noda O'zbekiston oldida turgan erkin, demokratik jamiyat qurish maqsadlarini amalga oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

I bob bo'yicha xulosalar

Mamlakatimiz xalqlarining, xususan o'zbek xalqi va uning ajdodlarining ma'naviyati uzoq o'tmishga borib taqaladi. Jumladan, yurtboshimiz I.A.Karimov yurtimizda shakllangan davlatchilikni uch ming yildan ham ortiqroq shakllanganligini qayd qiladilar. Xalqimiz ma'naviyati undanda oldinroq shakllana boshlagan. Lekin yurtimizdagi mavjud boyliklarga qarshi ko'rolmagan, xasadgo'y bosqinchilar bu boyliklarni egallashga ko'p marotaba harakat qildilar. Yurtimizni eroniylar, makedoniylar, kushaniylar, arablar, mo'g'ullar, ruslar va boshqalar toptadilar, boyliklarini taladilar. Mahalliy xalq ma'naviyatini susaytirishga intildilar.

Buning ustiga mamlakatimiz hududi Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligi turli sabab va oqibatlar tufayli ko'p xalqli, ko'p millatli, ko'p elatli maskanlardan biriga aylandi.

O'zbekiston tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz hududida turli millat va elatlar o'rtasida hech qanday nizolar, kelishmovchiliklar sodir bo'lmagan. Bu esa yuksak ma'naviyatning bu yurtda umrguzaronlik qilgan barcha xalqlar, millatlarga, elatlarga kuchli ta'sir qilganligidan darak beradi.

Har qanday inqiroz, bo'hton, nizo, razil va yaroqsiz harakatlarni bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi. Aksincha, qayerda ma'naviyatsizlik mavjud bo'lsa o'sha yerda razillik, adolatsizlik, millatchilik, milliy nizo, milliy ziddiyatlar sodir bo'laveradi. Shu ma'noda, I.A. Karimov "Ma'naviyat- insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigon beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir",¹⁵ deb baholagan edi.

Insoniyat tarixida ijtimoiy taraqqiyotga qarab kishilarning tarixiy birliklari shakllanadi va rivojlanadi. Ularning eng yuksak bosqichi millatdir. Professor Q. Xonazarov "millat deganda umumiy tilda so'zlashib, bir butun umumiy hududda istiqomat qilib turgan, birga iqtisodiy hayot kechiradigan, umumiy madaniy, ma'naviy va ruhiy muhitga ega kishilarning tarixan shakllangan barqaror birligini" tushunadi.

Millatlar eng qadimiy va o'rta asrlar millatlari, yangi zamon millatlari sifatida shakllangan va hozirgi davrda dunyoda 1600 ga yaqin millat, elatlar mavjud.

Dunyodagi mamlakatlarning aksariyati ko'p millatli, 29 ga yaqin esa oz millatli mamlakat hisoblanadi. Turli ijtimoiy-tarixiy o'zgarishlar tufayli, ayrim holda noto'g'ri milliy siyosat yuritishi natijasida ko'p millatli makonlar, hududlar, mamlakatlar vujudga keldi. Hozirgi dunyoda sodir bo'layotgan globallashuv hodisalari bu sohaga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

¹⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T."Manaviyat" 2008, 19 bet.

Millatlararo munosabatlarda yuksak ma'naviyatga asoslangan miliy siyosat haqidagi O'zbekiston modeli hayotda amaliy tasdiqlandi, ma'naviyat tamoyillari asosida turli millatlar hamjihatligini qaror toptirdi.

Ma'naviyat tamoyillari asosida O'zbekistonda yashayotgan boshqa millat va elat vakillari ham o'zaro ta'sir va yaxshi kafolatli munosabatlar asosida rivojlanib bormoqda.

Ko'p millatli mamlakatlarda muhim ma'naviy hodisa "Yagona vatan" g'oyasini amalda joriy qilish hisoblanadi. Natijada O'zbekistonda yashayotgan 136 millat-elat vakillari O'zbekistonni o'z tarixiy Vatanim deb baholamoqdalar.

II bob. Mustaqil O'zbekistonning millatlararo munosabatlarining nazariy va huquqiy asoslari

2.1. O'zbekistonda millatlararo totuvlik tizimini shakllantirishning huquqiy asoslari

Har qanday mustaqil davlatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush qurishi, xohish-irodasini amalga oshirilishi, ezgu maqsad va niyatlari huquqiy jihatdan kafolatlanishi lozim.

Shu kafolat vatan taraqqiyotini, davlat mustaqilligini, xalqning jipsligini, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni, mustaqillikning barqarorlikni ta'minlashga shart-sharoit yaratadi. Yuqorida aytilgan kafolat Respublikamiz Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Bu haqda Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning birinchi chaqiriq, o'n birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: "Davlatimiz, O'zbekistonda yashayotgan har bir fuqaro kelajagining kafolatini Konstitutsiya beradi. Fuqarolarning haq-huquqlari, burchlari konstitutsiyada belgilangan, tegishli qonunlar bilan mustahkamlangan. Maqsadimiz erkin, demokratik huquqiy davlat qurish, adolatli jamiyat barpo etish, hech bir insonni kamsitmaslik, e'tiqodini hurmat qilish, erkinligini ta'minlash", - deb ko'rsatgan edi.

Oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarga erishish uchun bugungi O'zbekistonga erkin va ravon fikrlay oladigan, uning hayotida faol ishtirok eta biladigan, o'z so'zini aytishga qodir, o'z vazifa va burchlarini to'g'ri anglab yetgan fuqarolar zarur. Bunday fuqaroni tarbiyalash zamon, taraqqiyotimiz talabi. Bunga qanday erishish mumkin?

Prezidentimizning yuqorida qayd etilgan nutqida ham ko'rishimiz mumkin: "Madomiki maqsadimiz aniq ekan, inson huquqlari umumxalq muhokamasida qabul qilingan Konstitutsiya himoyasida ekan, - deb nutqini davom ettirgan edi yurtboshimiz, - avlodlarimiz, farzandlarimiz kelajagiga xavf soladigan, millat sha'niga dog' tushiradigan hatti-harakatlar qayerdan paydo bo'layapti?" Bu o'rinda Prezidentimiz bunday qaltis hatti-harakatlarga qo'l urgan kimsalarning qonunni

bilmasligi, bilsa ham unga mensimasdan qarashi, hurmat qilmasligida ekanini, ularda huquqiy madaniyatning yo'qligi, yetishmasligini aytmoqchi.

Yurtboshimiz Islom Karimov so'zlari bilan aytganda: "...davlat davlatligini qilmoqchi bo'lsa, fuqaroni o'z panohiga olishi zarur... Boshqacha aytganda, davlat har bir fuqarosini himoya etishi, unga huquqiy yordam berishi kerak. Qonun oldida barcha barobar. Mamlakat qonunlariga jami fuqaro - yoshidan, millatidan, irqi, dinidan qat'iy nazar barcha barobar bo'ysunmog'i farz". Yana Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, qonun qog'ozda qolib ketsa, jamiyat aslo ravnaq topmaydi, qonun amalda bo'lishi lozim. Yuqoridagilarni bajarish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish adolatli davlatning ma'naviy va ma'rifiy vazifasi.

Demokratiya tushunchasi negizida aholining ozodlik, hurriyatga erishishi, erkin yashashi, haqiqat va adolat singari mazmun yotadi. Buyuk bobomiz Amir Temurning "Kuch adolatda" degan so'zi negizida huquqiy - demokratik davlatning ham, fuqarolik jamiyatining ham ayrim belgilari, g'oyat insonparvarlik mazmuni va insonning yashash huquqi, uning barcha erkinliklari ham mujassamlashgan. Yuqorida aytilgan fikrlar hozirgi zamon demokratik harakatlar ilg'or tajribasining o'q ildizini, bosh yo'nalishini tashkil etadi.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, qadimiy sharq davlatchiligida inson erki, haq-huquqlari ko'p jihatdan himoya qilingan hamda o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson ozodligi va hatti-harakatlari erkinligi ta'min etilgan edi. Bular ayni demokratik jamiyatining muhim va asosiy belgalaridan hisoblanadi.

Bizning eng katta ishonchimiz, madad-tayanchimiz - bu o'sib kelayotgan yosh avlodimizdir. Takroran aytamanki, men o'zimning taqdirimni ham, mamlakatimiz va mustaqilligimiz taqdiri va kelajagini ham ana shu yoshlar qiyofasida, ularning pok qalbi, erkin tafakkuri, mustahkam irodasi va dunyoqarashida ko'raman¹⁶.

¹⁶ Karimov I.A. Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. VII jild, 246-247-betlar.

Biz orzu qilayotgan farovon, ozod va obod hayotga erishishning asosiy sharti shuki, uning qonun-qoidalariga, talablariga bo'ysunib, rioya qilib yashash kerak. Aks holda umuminsoniy taraqqiyotning katta yo'lidan chetga chiqib, yana o'sha og'ir muammolar girdobida qolib ketish xavfi bor.¹⁷

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng huquqiy-demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni oliy maqsad qilib qo'ydi. Unga erishishning yagona yo'li esa demokratiyani chuqurlashtirishdir.

Shuni aytish kerakki, demokratik jamiyatni barpo etishning tamoyillari, dunyo tan olgan, e'tirof etgan, barcha uchun umumiy bo'lgan o'z yo'riqlari mavjud. Bularga: bevosita fuqaroning o'z xohish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, saylash va saylanish huquqi va boshqalar. Bular deyarli barcha mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham qat'iy belgilab qo'yilgan demokratiyaning tartib qoidalaridir.

Bu haqda Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov: "Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni aslo nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlar yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojeali natijalarga olib keladi. Inqilobni G'arb olimlari ham "Ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli" deb aytganlar.¹⁸ Tabiiyki, bunday yo'l bizga aslo to'g'ri kelmaydi deganda demokratiyani joriy etishning bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan odamlar ongi va qalbi orqali amalga oshirish kabi o'zbekona tamoyillari mavjudligini ko'rsatadi.

Har qanday xalqni xalq, millatni millat qiladigan uning yo'li va maqsadlarini aniq-ravshan charog'on etadigan mafkura, milliy g'oyani shakllantirishning asosiy

¹⁷ Adolat har ishda hamrohimiz va dasturimiz bo'lsin. VII jild, 246-247-betlar.

¹⁸ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. —T.1995, 10 – 11 betlar.

sharti-odamlarning tafakkuri, dunyoqarashining voqelikka nisbatan ta'sirini inobatga olishdir.¹⁹

Shaxsning faqat o'zini o'ylashi, barcha tashabbuslar ostida o'z manfaati turishi, shaxsiy g'amxo'rlik, o'zi uchun yashash, o'zgani o'ylamaslik, barcha umumiy manfaatlardan o'z manfaatlarini ustun qo'yish kabi kayfiyati demokratiyaning chuqurlashishiga to'sqinlik qiladi. Boz ustiga asrlar davomida xalq turmushiga aylangan qadriyatlarga ham ziddir.

Shunday qilib, milliy o'zlikni anglash, huquqiy savodxonlik, qonunlarga itoatkorlik, davlat tizimiga hurmat, demokratik qadriyatlarga sodiqlik, bir tomondan, jamiyat ma'rifiy taraqqiyot yo'lidan borishini ta'minlaydigan omil bo'lsa, ikkinchi tomondan, shaxs ma'naviy komilligini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi. Jamiyatda komillik mezoniga javob beradigan kishilar aksariyat ko'pchilikni tashkil qilsagina ma'naviy barkamollik va iqtisodiy yuksaklikka erishish mumkin bo'ladi.²⁰

Milliy g'oya keng mazmunga ega. U millatlararo totuvlik va milliy, diniy bag'rikenglik g'oyalari bilan o'zaro mushtarak. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, milliy g'oya bu faqat birgina millatning emas, balki jamiyat taraqqiyotiga, ravnaqiga umumiy maqsad yo'lida baholi qudrat hissa qo'shayotgan mamlakat fuqarolarining millati, irqi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar barchaning maqsad va manfaatlarini ifoda etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 136 dan ziyod millat va elat vakillari yashaydi. Bu jamiyatimizdagi milliy o'ziga xoslikni ifodalaydi.

Millatlararo totuvlik g'oyasi - umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omildir.

Muayyan mamlakatga nom bergan (titul) millat bilan unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasida hamjihatlik bo'lishi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim

¹⁹ Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz (Turkistonl gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblari VII jild, 297-302-betlar.

²⁰ S.Otamuratov, J. Ramatov, S. Xusanov. Ma'naviyat asoslari ma'ruza matn. T – 2000, 204 – bet.

omillaridan biridir. Aksincha, milliy g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik jamiyat hayotini, tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Millatlararo totuvlik va hamjihatlikka raxna soluvchi illat - bu tajavvuzkor millatchilik va shovinizmdir. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyat beqarorlik holatiga yuz tushishi muqarrar. XX asrda Yevropa xalqlarini asoratga solgan va ayrim davlatlarning tanazzuliga sabab bo'lgan fashizm yoki milliy xususiyatlar bilan hisoblashmagan va soxta baynalmilalchilik g'oyasiga asoslangan kommunizm g'oyasi bunga yaqqol misol bo'ladi.

O'zbekiston hududida qadim qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Bag'rikenglik, o'zaro mehr-oqibat singari noyob insoniy fazilatlar aynan mahalla muhitida kamol topadi, shu ma'noda, mahallani o'zini-o'zi boshqarish maktabi, ta'bir joiz bo'lsa, demokratiya darsxonasi deb atash mumkin.²¹

Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga bo'lgan olijanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.²²

U do'stona munosabatlar ustun bo'lgan sharoitda ijtimoiy taraqqiyotning omili sifatida maydonga chiqadi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday yozadi: "Jahon tajribasidan millatlar yoki etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda an'anaviy uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p elatlilik omili davlatlarning siyosiy iqtisodiy rivojlanishiga samarali, rag'batlantiruvchi ta'sir etishini ko'rsatuvchi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Bu mamlakatlarda etnik guruhlar va irqalar o'rtasida ma'lum muammolar mavjud. Shunga qaramay, ko'p elatlilik omili ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'lidagi to'g'anoqqa

²¹ Milliy istiqlol mafkurasini - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir (Fidokorl gazetasi muxbiri savollariga javoblar) VIII jild, 489-508-betlar.

²² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T:O'zbekiston, 2001. 95-bet.

aylanib qolmagan, aksincha, taraqqiyotning jadallashuviga yordam bergan, millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishi bu davlatlarda yashayotgan xalqlarning ijtimoiy-aqliy boyishi uchun yaxshi manbaga aylangan. Shunday qilib, bu mamlakatlarda ko'p millatlilik omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, fuqarolar jamiyati qurilishining ta'sirchan vositasiga aylanib qolgan".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu fikrlarni yanada chuqurlashtirib, ko'p millatlilik bizning bebaho boyligimiz ekanligini, hamma narsa undan foydalanishda ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Darhaqiqat, har bir millat o'zining betakror madaniy- ma'naviy qadriyatlariga ega. Bunday millatlar vakillarining bir mamlakat hududida yashashlari, birgalikda mehnat qilishlari, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o'zaro ta'sirda bo'lishlari xalqlarning har jihatdan taraqqiyotini tezlashtiradi.

Adolatli milliy siyosat olib borilganida ko'p millatlilik maqsadimiz yagonaligini, taqdirimiz birligini, hamjihatlik zarurligini tushunishga yordam beradi, umuminsoniy g'oyalarning ustuvor bo'lishini, shaxsiy manfaatlarni to'g'ri anglab olishni osonlashtiradi. Aksincha, milliy munosabatlarga ziyraklik va noziklik bilan yondashmaslik umummilliy tamoyillarga biroz e'tiborsizlik ham tinchlik va barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. I.A.Karimov o'z fikrini davom ettirib, shunday yozadi: "Ayni chog'da insoniyat tarixida buning aksini, ya'ni ko'p elatli davlatlardagi millatlararo munosabatlarda uyg'unlikning yo'qligi, butun xalqlar va mamlakatlarni ancha orqaga uloqtirib tashlagan ijtimoiy-siyosiy falokatlar olib borganini ko'rsatuvchi misollar ham oz emas. Zero, ko'p elatlilik nafaqat ayrim mamlakatlarning, balki butun mintaqalarning ham ichki siyosiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan".

Millatlar o'rtasida mojarolarga yo'l qo'ymaslik uchun etnik siyosatda shaxs huquqlari himoya qilinishining ustuvor bo'lishini mamlakatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullar asosiy yo'limiz ekanligiga, bozor munosabatlarini iqtisodiy taraqqiyotda barcha millatlarga mansub aholining

manfaatlariga mos kelishiga, har bir millat madaniyati, tili, urf-odat va an'analari, madaniy merosini rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 millat, elat, xalq va etnik guruhlarning vakillari yashaydi. Ularning har biri o'z milliy madaniy urf-odatlari, an'analari, tiliga, konstitusiyaviy huquqiy tenglikka ega. O'zbekistonda bugungi kunda 145 dan ortiq milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatmoqda. Shu yo'nalishda markazlar tuzish bo'yicha 15 ta tashabbuskor guruh ish olib bormoqda.

O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlat qonuni bilan mustahkamlangan. Buning ijobati maktablarimizda 9 ta milliy tilda o'qitish ishlari, 20 tilda ommaviy axborot nashrlari faoliyat ko'rsatayotganligini ko'rinmoqda.

Turli millat vakillarining ijodiy tadbirlari, badiiy ko'rgazmalari, bir tomondan, ayni millatning O'zbekiston fuqarosi sifatida o'z o'rni borligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, shu zaminda yashovchi barcha millatlarning O'zbekiston xalqi-O'zbekiston fuqarosi ekanligani namoyon etuvchi, mustahkamlovchi milliy g'oya atrofida birlashuviga olib boradi.

Milliy istiqlol g'oyasi o'z mazmun mohiyatiga ko'ra barcha millatlarning umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqaradi. Mamlakatda fuqarolararo va millatlararo totuvlik hamda ijtimoiy barqarorlik muhitini ta'minlashga xizmat qiladi. Zotan, har qanday polietnik davlatda turli millatlar o'rtasidagi munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyotiga zamin yaratuvchi omillardan hisoblanadi.²³

Jahon keng, dunyoda mamlakat ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakka-yu yagonadir. O'zbekiston deb atalmish yurtning yagonaligi uning betakror tabiati, boy tarixi, zahmatkash insonlari bilan bir qatorda bu zaminda turli millat va elat vakillarining yagona oila farzanlaridek yashashlarida namoyon bo'lmoqda. Bunday ahillik, do'stlik va hamkorlik o'zining chuqur tarixiy ildizlariga va asosiga ham ega, bu asoslar mamlakatimiz Konstitusiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, uning 18-moddasida barcha

²³ Internet ma'lumoti. www.wikipedia.uz/milliy_istiqlol_go'yasi/org.

fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir", - degan qoida mustahkamlab qo'yilgan.²⁴

E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy his-tuyg'ulariga daxldor, muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat'iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan.

Ikkinchidan, fuqarolarning diniy e'tiqodidan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta'kidlangan. Diniy qadriyatlar millat ma'naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur qoidaning amaliy ahamiyati oydinlashadi.

Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilikdan g'ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatilmaganini alohida qayd etish lozim. Ammo ayrim mintaqalarda tajovuzkor millatchilik g'oyalari bilan qurollangan ayrim guruhlar diniy-aqidaparastlik va irqchilik qarashlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinayotganini ham unutmaslik zarur. Axborot globallashuvi kuzatilayotgan bugungi kunda turli g'oyalar hech qanday chegaralarni tan olmay kirib kelishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu tamoyilning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Tarixiy tajriba ko'p millatli davlatning barqarorligi, millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarni to'g'ri belgilab qo'yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000-yilda 36 mamlakatda 40 ta, 2001-yilda esa 30 mamlakatda 36 harbiy nizo sodir bo'lgan. Ularning 27 tasi, ya'ni 75 foizi bundan 10 yillar oldin boshlangan. Bu nizolarning aksariyati bir mamlakat ichida kechganini e'tiborga oladigan bo'lsak, ularning milliy, diniy va irqiy asoslardan kelib chiqqan fuqarolik urushlari ekanini anglatadi.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T. 2014 yil.

Bemalol aytish mumkinki, jahonning turli nuqtalarida alanganib turgan bunday nizolar aksariyat hollarda millatlararo munosabatlarda millatlararo totuvlik, bag'rikenglikning yo'qligi ham sabab bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, respublikamiz milliy siyosatining asosiy tamoyillari hayotda ham o'z ifodasini topayotganini ta'kidlash zarur. Xususan, millatlararo munosabatlar sohasidagi amaliyot haqida gap ketar ekan, istiqlol yurtimizdagi turli millat va elat vakillariga o'zining tarixiy vatanlari bilan aloqalar o'rnatishga imkon berganini qayd etish lozim. O'rnatilgan aloqalar ona tilini o'qitish va o'rganishni yo'lga qo'yish, turli qo'llanmalar va adabiyotlarni o'z vaqtida olish, yoshlarni ta'lim olish uchun rivojlangan mamlakatlar, ba'zan esa ularning tarixiy vataniga yuborish imkoniyatlarini yaratdi. Shuningdek, keng qamrovli madaniy-ma'rifiy dasturlarni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasi o'tkazayotgan milliy siyosatning eng muhim ustuvor yo'nalishi barcha millatlarning ravnaqi uchun tinch sharoit va imkoniyat yaratish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bu sohada keyingi yillardagi eng katta yutug'imiz umumiy uyimizdagi tinchlik va barqarorlik millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir. Odamlarimiz ongida ana shu qadriyat va uning o'zgarmas ahamiyati tushunchasi kun sayin oshib borayotganligidir deyish mumkin. Dunyoning qariyb barcha mamlakatlari ko'p millatli. Respublikamiz ham ana shunday boy, turfa madaniyatlar gullab yashnayotgan mamlakatlardan biri ekani har bir O'zbekistonlikka iftixor baxsh etadi. O'zbekistonni o'z Vatani deb bilib, uning taraqqiyoti yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan turli millatga mansub yurtdoshlarimizdan har biri buni dildan teran his qilmoqdalar. Olib borilayotgan oqilona milliy siyosat tufayli Respublikamizda qaror topgan tinchlik ijtimoiy totuvlik o'zaro hamkorlik tobora mustahkamlanib bormoqda.²⁵

Respublika Baynalminal madaniyat markazi (RBMM) va Milliy madaniyat markazlari (MMM)ning faoliyati bu yerda yashovchi xalqlarning milliy an'analari, urf-odatlari va marosimlarini qayta tiklash, ma'naviyat va madaniyatni

²⁵ Internet ma'lumoti www.wikipedia.uz/ milliy istiqlol g'oyasi/ org.

rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Turli millatlarga mansub fuqarolarimizning katta umumxalq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish, mamlakat madaniy turmushidagi shonli voqealarni nishonlashda faol ishtirok etayotganliklari samimiy sahovat va mehr-oqibat muhitini yaratmoqda. Bu muhit bizga yagona oila tuyg'usini qayta-qayta his etish "O'zbekiston umumiy uyimiz" degan so'zlar zamiridagi chuqur ma'noni anglab olish imkonini beradi. Dastlabki milliy madaniyat markazlari koreyslar, qozoqlar, yaxudiylar, armanlar tomonidan Respublika viloyatlarida 1989- yilda tuzildi. O'sha paytda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida O'zbekiston hukumatning qaroriga binoan Madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika Millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazlarning chinakam rivojlanish va ravnaq topishi 1991-yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin isbotlandi. 1992-yilning yanvarida Prezident I.A.Karimovning tashabbusi bilan Respublika Millatlararo Baynalmilal markazi qoshidagi Madaniyat ishlari vazirligi Respublika Baynalmilal madaniyat markaziga aylantirildi. Shu tariqa uning faoliyati negizida millatlar va elatlarni jipslashtirishga asosiy e'tibor qaratildi.

RBMM to'g'risidagi nizomda uning mustaqil muassasa ekanligi belgilab qo'yilgan. Markaz milliy madaniy markazlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi. O'zbekistonda yashovchi milliy guruhlarining madaniy ehtiyojlarini qondirishda davlat idoralariga va jamoat tashkilotlariga ko'maklashadi.²⁶

Respublika Baynalmilal Madaniyat Markazining moddiy-texnikaviy baza bilan ta'minlanishi RBMM va MMM ishlarini faollashtirdi, ularning birlashuvi va samarali hamkorlik qilishi uchun keng istiqbollar ochdi.

"Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi". Din qadim qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Milliy va diniy qadriyatlarning asrlar osha bezavol

²⁶ Internet ma'lumoti www.wikipedia.uz/ milliy istiqlol g'oyasi/ org.

yashab kelayotgani ham ularni bir-birlari bilan yaqin mushtarak maqsadlarga egaligidadir. Chunki dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi fazilatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik mehr-shafqat va bag'rikenglikka da'vat etadi. Hozirgi zaminda bu g'oya ezgulik yo'lida, nafaqat dindorlar, balki butun jamiyat a'zolarining hamkorligini nazarda tutadi, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Masalan, azal azaldan diyorumizda turli diniy ta'limotlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar davomida yirik shaharlarimizda masjid, cherkov, xonaqohlarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir.

Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik g'oyasiga amal qilib yashab kelganlaridan dalolat beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda 17 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida ishtirok etishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilgan. Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'grisida" gi qonunda o'z ifodasini topgan. Ana shu asoslar mamlakatimizdagi barcha din vakillarining hamkor, hamjihat bo'lib, ulug' va mushtarak g'oyalar yo'lida harakat qilishi uchun imkon yaratadi.

Dinlarning umuminsoniy mohiyati, maqsadi bir bo'lib, ular aslida bir-birlariga zid emas. Diniy bag'rikenglikning mohiyati shundan kelib chiqadi. Jamiyat tarixidan turli dinga mansub kishilarning yonma-yon yashab kelganligiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bizning mamlakatimiz hududida ham islom, ham nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan, diniy amallar erkin ijro etib kelingan. O'sha davrlarda ham ziyolilar, olimlar bir-biridan o'rganganlar, ustoz shogird bo'lishgan. Ularning turli dinlarga mansubligi bunday munosabatlarga halal bermagan.

O'zbekistonda yangi demokratik fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishga kirishilgan hozirgi o'tish davrida diniy bag'rikenglik qanchalik muhim bo'lsa, diniy bag'rikenglik uchun milliy mafkura ham shunchalik muhimdir. Milliy mafkuraning yuksak g'oyalari, o'z navbatida, dinning haqiqiy mohiyatini jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini anglab olishga yordam beradi. Diniy bag'rikenglik g'oyasini to'g'ri tushunishga yordam berib, barcha kishilarni e'tiqodidan qat'iy nazar birlashtiradi.

Respublikamiz aholisining milliy qiyofasi faqat Sharq emas, balki, G'arb sivilizatsiyasiga mos umuminsoniy tamoyillar, islom, xristianlik va boshqa dinlarga e'tiqod, an'ana va urf-odatlar, rang-barang turmush tarzidan iborat ma'naviy mezonlarni o'zida aks ettiradi. Bunda yurtimizda yashayotgan xalqlarning o'tmishi, bugungi hayoti, kelajak bilan bog'liq orzu- umidlari asrlar osha yonmayon yashash jarayonida shakllangan hamjihatlik, bag'rikenglik, qardoshlik tuyg'ulari uyg'unlashgan tarzda namoyon bo'ladi.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik (tolerantlik) va murosa borasida faqat MDH davlatlariga emas, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus Patriarxi Aleksey II, AQSh senatori Hillari Klinton xonim, AQShning sobiq davlat kotibi Madlen Olbrayt va Iordaniya qirolligi shahzodasi Hasan ben Talol yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tganlar. Albatta, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bu xislat o'zining uzoq tarixiga ega.

Tariximizning har qaysi davrida din doimo odamlarda yaxshi xislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan yuksak umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan. Bugungi kunda ma'naviy va diniy jabhalarda kechayotgan murakkab jarayonda barcha millat va din vakillari bir-birlariga nisbatan hamjihatlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga amal qilishlari doimiy barqarorlikning muhim omillaridan biridir. Prezidentimiz I.A.Karimovning "Mustaqillik niholi ko'karishi uchun unga tinchlik, osoyishtalik, totuvlik, millatlararo chidam va bardosh kabi kuchli ildizlar kerak. Shunda u har qanday shamol, dovul, bo'ronlarda egilmaydigan bo'lib ulg'ayadi" degan so'zlari hayotga izchillik bilan tadbqiq etilmoqda. Ilgari surilgan mazkur g'oyani amalga oshirishda

bugungi kunda ikki muhim masala, bir tomondan, tinchlik va ezgulik dini islomni "soxta islomchi"lardan, ya'ni ma'rifiy islomni siyosiylashgan jangari islomdan himoya qilish, ikkinchi tomondan, ko'p millatli, ko'p dinli jamiyatimizda e'tiqod erkinligi kafolatlangan sharoitda ayrim jamoalarning missionerlik ruhida faoliyat yuritishlarining oldini olish muhim. Bu, o'z navbatida, yurtimizdagi millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda butun dunyo, shu jumladan, mintaqamizda kuchayib borayotgan diniy aqidaparastlik va jangarilik islomning asl mohiyati bo'lgan bag'rikenglikka zid bo'lgan harakatlarga sabab bo'lmoqda. Bu harakat va g'arazli oqimlarning nomlari va shiorlari turlicha bo'lishiga qaramay, maqsadlari bir - dindan niqob sifatida foydalanib, davlat siyosatiga aralashish, hokimiyatni qo'lga kiritish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobida dinning jamiyat hayotida tutgan o'rni haqida, jumladan, shunday deydi: "Biz din bundan buyon ham aholini oliy ruhiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilish tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da'vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo'lishiga yo'l qo'ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz".²⁷

Hozirgi zamonda milliy va diniy bag'rikenglik dunyoda tinchlik va barqarorlikni asrash hamda diniy ekstremizm, fundamentalizm va aqidaparastlikka qarshi kurashni, butun jahon hamjamiyatining hamkorligini nazarda tutadi. Shu tamoyilga asoslangan O'zbekiston turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqarolar o'z e'tiqodini amalga oshirishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlash, ular

²⁷ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida : xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T. : "O'zbekiston", 1999 -y, 96- betlar.

o'rtasidagi qadimiy mushtarak an'analarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Shuni aytish mumkinki, milliy bag'rikenglik turli millatga mansub kishilarning bir-birlarining tilini, dinini, turmush tarzi, urf-odati va an'analarini, milliy madaniy merosini hurmat qilishni, ularning sha'ni, qadr-qimmatini, or-nomusini qadrlash orqali amalga oshadigan o'ziga xos ma'naviy kenglikni (bag'rikenglikni) anglatadi. Milliy bag'rikenglik bunga zid bo'lgan, milliy manfaatga ziyon yetkazish hisobiga ta'minlanmaydi. U turli millat manfaatlarini uyg'un ko'rish va ta'minlash asosida mustahkamlanib boradi.

Diniy bag'rikenglik ham dinlararo hamda har bir dinning ichidagi turli xil yo'nalishlar va mazhablarning ezgu g'oyalarini qadrlash, bir-birlarini hurmat qilish asosida amalga oshadi.

Bu milliy g'oya amal qiladigan ustuvor g'oyalar sifatida milliy bag'rikenglik va dinlararo bag'rikenglik asoslari turli xalqlar va millatlar o'rtasida o'zaro hamjihatlik, totuvlikni ta'minlash orqali erkin va farovon hayot qurishga, insonlarning tub hayotiy maqsadlari bilan mushtarakdir.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni rivojlantirish uchun barcha huquqiy asoslar va zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bag'rikenglik madaniyatini tarbiyalash va yanada mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Hozirgi kunda mamlakatimizda milliy madaniy rang-baranglik hayotimizning ajralmas qismi sifatida qaralib, barqarorlikni ta'minlash omili bo'lib xizmat qilayotgani va jamiyatimizning demokratik islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidan ilgarilab borishida muhim rol o'ynayotgani, biz O'zbekiston deb ataydigan umumiy uyimizda turli milliy madaniyatlarning shakllanayotgani alohida e'tiborga sazovordir. Xalqimiz bag'rikenglik, o'zaro totuvlik, ahil-inoqlikni yuksak qadrlaydi. Bu xislatlar, ayniqsa, istiqlol yillarida yanada e'zoz topdi.

Asosiy qonunimizning 4-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va

an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi"²⁸ deb qayd etilgan. Turli millat vakillarining milliy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga ularning milliy til, madaniyat va urf-odatlarining saqlanib qolishi hamda rivojlanishiga xizmat qiladigan milliy madaniy markazlar miqdori yildan yilga ko'payib bormoqda. Chunonchi 1989-yilda Respublikamizda atiga o'nga yaqin milliy madaniy markaz faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1995-yilga kelib ularning soni 70 taga, 2000-yilga kelib esa 100 taga yetdi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 145 dan ziyod milliy madaniy markazlar Respublikamizning yetakchi jamoat tashkilotlari qatorida samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, bu markazlarning har biri, millatidan qat'iy nazar, yurtdoshlarimiz uchun ochiqdir. Ularning barchasi bugungi kunda RBMM boshchiligida umumiy uyimiz, yagona Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyatni anglash tuyg'usi bilan yashamoqdalar va bu yo'lda to'la hamjihatlik bilan bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilmoqdalar. Bunday yuksak darajadagi e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosi qayta tiklandi, qadr topdi. Barcha millat vakillarining davlat boshqaruvi, iqtisodiy-ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarda keng va erkin ishtirok etishi kafolatlandi. Bundan tashqari, umumta'lim maktablarimizda ta'limni yetti tilda olib borish yo'lga qo'yilgani, ko'p sonli millatlar tilida gazeta-jurnallar chop etilayotgani, radio va teledasturlar efirga uzatilayotgani alohida e'tiborga loyiq.

2.2 Islom Karimov asarlarida millatlararo mojarolarni hal etish masalalari.

Prezident Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" nomli kitobida jamiyatdagi barqarorlik, tichlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni, sarhadlarimiz daxlsizligini va mamlakatimiz yaxlitligini ta'minlash masalasi oltinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Bu borada siyosatimizning asosiy tamoyillari quyidagicha:

²⁸ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 4 – moddasida –T.: —O'zbekistonl, 2014.

- boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- xalqaro hamkorlikni tabora rivojlantirish;
- dunyo mamlakatlari bilan teng huquqlilik asosida sherikchilik qilish;
- barcha muammo va mojarolarni faqat tinch siyosiy va huquqiy vositalar bilan hal etish.

Bu tamoyillar siyosatda oshkoralikka, ochiqlikka, tenglikka va huquqiylikka tayanib ish yuritish taqazo qiladi. Ammo qo'shni respublikalardagi va mintaqamizdagi vaziyat mamlakatimiz suverenitetiga tahdid soluvchi tajovuzkor kuchlardan saqlay oluvchi mustahkam va barqaror xavfsizlik tizimini yaratish zaruriyatini tug'diradi. Mintaqadagi ahvol, dunyoning boshqa hududlarida vaziyatning keskinlashuvi O'zbekistonning suverenitetiga, izchil va barqaror rivojiga xavf solishi mumkin bo'lgan kuchlarga munosib javob qaytaradigan xavfsizlik tizimlarini yaratishni taqazo etmoqda, - deb ta'kidlaydi I. Karimov. Bu jamiyatni boshqarishga yangicha tafakkur usuli bilan qarashni talab qiladi.

Milliy mafkura vositasida yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi.²⁹

Chunki ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda, ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - Ozod va Obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi.³⁰

Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri har xil tizmlardan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlarga fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'ladi.³¹

²⁹ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. ("Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javoblari) VII jild, 84-102-betlar.

³⁰ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. ("Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javoblari) VII jild, 84-102-bet.

³¹ O'sha manba.

Bugun xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.³²

I.Karimovning quyidagi so'zlarini eslab o'tish o'rinli bo'lar edi: "...hozirgi vaqtda dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan bo'lsada, turli xil maqsad – manfaatlarini ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad -inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish". Bugungi kunda Yer yuzida turli xil davlatlar, xalqlar, millatlar, elatlar, turlicha dinlar, mazhablar o'rtasida bir-birini tushunishga, bir-birini anglashga, bir-birini qo'llab-quvvatlashga intilish kuchaygan. Bu bir-birining nuqtai nazarlari bilan hisoblashishga, bir-biriga nisbatan toqatli bo'lishga da'vat etadi. Bu siyosiy tolerantlik demakdir. Bir masalaga turlicha nuqtai nazardan qarash, nuqtai nazarlar xilma-xilligi esa plyuralizm demakdir.³³

Bugungi kunda umuminsoniyat kelajagiga xavf-xatar solib turgan umumbashariy muammolar avj olgan bir davrda yashamoqdamiz. Bunday muammolarni yechishga bitta davlat yoki bir mintaqada yashovchi aholining qurbi yetmaydi. Shunday vaziyatda ko'pchilik davlatlarning hamkorligi va ittifoqi kerak bo'ladi. Mamlakatlar o'rtasida, davlatlar va xalqlar o'rtasida umumiy ofatlar: xalqaro terrorizm, narkomaniya, uyushgan jinoyatchilik, ekologik ofatlar va boshqalarga qarshi kurashish uchun jahon miqyosidagi umumiy hamkorlikni qaror toptirish zarur. Bunday yondashish globalistik yondashishdir.

³² Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. ("Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javoblari) VII jild, 84-102-bet.

³³ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida : xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T. : "O'zbekiston", 1999 -y, 87- betlar.

Ijtimoiy jarayonlarga ko'p tarmoqli, ko'p bosqichli, ko'p yo'nalishli rivojlanuvchi hodisalar sifatida qarash lozimki, ularni tahlil etish uchun dialektik yondashish yetarli bo'lmay qoldi. Shu sababli, ularga endi sinergetik metodologiyani tatbiq etish mazkur jarayonlarning barcha qirralarini qamrab olishga imkon beradi. Bu esa, o'z navbatida, voqeilikka kengroq miqyosda, ochiq sistema nuqtai nazaridan, olamning xilma-xilligi va rang-barangliligi, jarayonlarning o'zaro tartibli va tartibsiz iplar bilan murakkab, ko'p tarmoqli bog'lanib ketganligini hisobga oluvchi sinergetik tafakkurga ehtiyoj tug'diradi.³⁴

Jamiyatni atrofda ro'y berayotgan jarayonlarga hamohang boshqarishda yangicha tafakkurga o'tishning, tafakkurni hukmron va zo'ravonlikka asoslangan mafkuraviy tazyiqlardan ozod qilishning, jamiyatda fikr, tafakkur erkinligini qaror toptirishning ahamiyati kattadir. Prezidentimiz I. Karimov "Tafakkur" jurnali muharririning savollariga bergan javoblarida shunday deydi: - fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatlidir. Shunday qilib, ozod tafakkur jamiyatni ijodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, yangicha tafakkurning asosiy belgilaridan biri bo'lib qoladi.

Ma'lumki, jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishda revolyutsion va evolyutsion uslublar mavjud. Bu haqda falsafada quyidagicha fikr ilgari surilgan: ijtimoiy jarayonlar revolyutsion va evolyutsion, ya'ni inqilobiy va bosqichma-bosqich tarzda boradi. Ijtimoiy revolyutsilar jamiyatda keskin, talato'kis o'zgarishdir, evolyutsiya esa yangi sifatga asta-sekin, bosqichma-bosqich, talofatlarsiz o'tishdir. Revolyutsion o'tishda jamiyatning asosiy tayanch nuqtalari singdiriladi, bu esa jamiyatdagi barqarorlikni tubdan o'zgartiradi, ya'ni barqarorlik beqarorlik bilan almashiladi. Bunday holat xalqning ijtimoiy va iqtisodiy ahvoriga jiddiy zarar keltiradi, qurbonlar beriladi, ijtimoiy va iqtisodiy talofatlarga duchor qiladi.

O'zbekiston rahbariyati jamiyatni o'zgartirishda evolyutsion uslubni tanladi va yangisini qurmasdan eskisini buzmaslik, jamiyat a'zolarini birdaniga himoyasiz

³⁴ Karimov I. A.. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda –T. 2000, 328–329 betlar.

qilib qo'ymaslik, keskin qashshoqlashtirmaslik yo'li bilan yangi jamiyatni bunyod qilishga kirishdi. Evolyutsion uslubda jamiyatdagi asosiy ishlab chiqarish vositalari o'zgarmasdan qolaverdi, ishlab chiqarish usuli esa bosqichma-bosqich o'zgartirilib boriladi. Bunday sharoitda yangicha ishlab chiqarish ilgari erishilga tajriba va yutuqlarni saqlab qolgan holda eskirgan tomonlarni asta-sekin yangisiga almashtirish yo'li bilan siljib boradi. Bunday sharoitda xalq kutilmagan sharoitga tushib qolmasdan, jamiyatdagi o'zgarishlarga hamohang ravishda o'zgarib boradi. Evolyutsion uslub, eng avvalo, xalqning tafakkurida o'zgarish bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Sodda qilib aytganda, el-u yurtimizning osoyishtaligi, osmonimizning musaffoligi, sarhadlarimizning bexatarligi, bugungi kunimizdan rozilik, ertangi hayotga ishonch, onalarimiz va farzandlarimiz yuzidagi tabassum, bu men - o'z faoliyatimda intiladigan eng oliy maqsaddir. Xalqimizning osoyishtaligi va farovonligi men uchun hamma narsadan afzal.³⁵

Bu dunyoda inson o'z mehnati, aql-g'ayrati bilan ko'p narsaga erishishi mumkin. Boylikka ham, shon-shuhratga ham, ilmiy, ijodiy kashfiyotlarga ham, oila, sevgi baxsh etadigan saodatga ham. Faqat buning uchun, avvalo, insonning uyida, mahalla-kuyda, yurtida, qisqacha aytganda, odamning ko'nglida tinchlik-xotirjamlik hukm surishi kerak.³⁶

Tinchlik-omonlik bo'lsa, hamma narsa bo'ladi - islohot ham, bozor iqtisodiyoti ham, jamiyatimizning yangilanishi ham. Aslida hayotimizdagi bugungi barcha islohot va demokratik o'zgarishlardan ko'zlangan maqsad-yurtdoshlarimizning turmushini farovon qilish, ularning haq-huquqlari, manfaatlarini himoya etish.³⁷

O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat barqarorligi ba'zi hukmronlik mavqeini saqlab qolishga intilayotgan siyosiy kuchlar va mamlakat ichkarisidagi ekstremistik unsurlarning tajovuz ob'ektlaridan biridir. Shu

³⁵ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. ("Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javoblari) VII jild, 84-102-bet.lar.

³⁶ O'sha manba.

³⁷ O'sha manba

sababdan, sodda xalqni avrash va chalg'itish orqali millatlararo mojarolarni sun'iy ravishda vujudga keltirish hamda yurtimizda istiqomat qiluvchi turli millat va din vakillari o'rtasida do'stlikka raxna solish yo'li bilan mamlakatimizdagi vaziyatni beqarorlashtirishga urunish O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligiga tahdid soluvchi potensial va real manbalardan biri ekanligini hisobga olmay bo'lmaydi, albatta. Chunki turli millatlar, elatlar, turli xil din vakillari yashaydigan joyda, ular orasida manfaat va maqsadlar xilma-xilligidan turli darajadagi kelishmovchilik va ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Bunday vaziyatlarni hisobga olish, vujudga kelgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish ijtimoiy barqarorlikni saqlashning muhim omilidir.³⁸

O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek, ko'p millatli davlatda etnik guruhlar o'rtasidagi va millatlar o'rtasidagi munosabatlar milliy xavfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi ta'sirchan omillardan biri ekanligi aniq bo'la boshladi. Bu esa, o'z navbatida, millatlararo munosabatlarda ro'y beradigan xilma-xil ziddiyatli holatlarni, mojarolarni ilmiy tahlil etishni talab qiladi. Bu borada ayniqsa, uzluksiz sotsiologik so'rovlar olib borish vaziyatni aniqroq tahlil etish uchun imkoniyat yaratadi. Bunday so'rovlar qaysi joyda va qanday ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish kerakligiga yo'llanma beradi. Turg'unlik yillari nizosizlik nazariyasi hukm surar, keskin ijtimoiy ziddiyatlar va millatlararo munosabatlarda mavjud bo'lgan mojarolarni o'rganish hamda tahlil etish ta'qiqlanardi. Muammolar mavjud bo'lsa ham, rahbariyat ularni ko'rmaganlikka olar edi. Shu bilan birga ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda nazorat qilib bo'lmaydigan nokonstitutsiyaviy jarayonlarning rivojlanishi rag'batlantirilar edi.

Bunga sobiq ittifoqdosh respublikalardagi iqtisodiy taraqqiyotning nomutanosibligi, ba'zilarini faqat xomashyo bazasiga va ba'zilarini esa sanoat markazlariga aylanganligi, milliy maktablar sonining kam bo'lganligi, ish yuritishning hamma joylarda rus tilida olib borilganligi, ba'zi bir milliy urf-odat, rasm-rusum va an'analar o'tkazilishining man etilganligi kabi millatlararo

³⁸ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T, 2000. 331-bet.

munosabatlarda mavjud bo'lgan salbiy jihatlar misol bo'la oladi. Aholining millatlararo muomila madaniyatini shakllantirishga yetarli e'tibor berilmaganligi ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib kelar edi.

O'tmishdan farqli o'laroq, siyosiy o'zgarishlar tizimining samaradorligi, jamiyat taraqqiyotida evolyutsion uslubga asoslangan yangicha tafakkurga tayanish, siyosatning oshkorligi, voqelikka boyligi tufayli O'zbekistonda umuminsoniy, umummilliy totuvlik va birdamlikka erishilmoqda.

Millatlararo nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri - millatchilik va shovinizmdir. Millatchilik boshqa xalqlarni mensimaslik, ularga nisbatan murosasizlik va ishonchsizlikda namoyon bo'lib, bir millatni boshqa millatdan ustun qo'yish psixologiyasi, g'oyasi, fikri va siyosati, o'z millatini yuqori qo'yish, milliy adovat va irqiy nafrat urug'ini sochishdir. Qator hollarda millatchilik va diniy zamin, diniy afzalliklarga tayangan.

Millatchilikning O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligiga solinayotgan tahdidlardan biri sifatida baholar ekan, mamlakatimiz Prezidenti siyosiy va boshqa maqsadlarda millatchilik o'yinini o'ynashga intilayotgan, siyosiy donolik va sog'lom aql tushunchalaridan yiroq bo'lgan kuchlar odamlarning keyinchalik jangari tajovuzkorlikka aylanuvchi ichki his-tuyg'ularning yuqori safarbaligiga ishonadilar, deb ta'kidlaydi. Millatchilikning yana bir xavfli tomoni shundaki, ulug' davlatchilik shovinizmi uchun zamin yaratadi. Albatta uning qarama-qarshi tomoni ham mavjuddir. Millatlararo nizolar yahudiylar va arablar, turklar va kurdlar, serblar va xorvatlar, bosniyaliklar va albanlar, armanlar va ozorbayjonlar, moldavanlar va gagauzlar, gruzinlar va abxazlarga qanchadan qancha g'am-tashvish, azob-uqubatlar olib kelmoqda. Bu ro'yxatni uzluksiz davom ettirish mumkin. Respublikamiz hamda yaqin qo'shnilarimizni ham bu ofat cheklab o'tmadi: Farg'ona, Bo'ka, Parkent, O'sh xalqimiz xotirasidan fojea sifatida o'rin olgan. Inson millatchi bo'lib ham, jinoyatchi bo'lib ham tug'ilmaydi, balki unga aylanadi. Oilalarda va maktablarda bolalarga milliy mafkuramiz ruhida ta'lim

berish va tarbiyalashga yetarli e'tibor berilmas ekan, inson millatchiga yoki milliylikdan begona-manqurtga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov "Turkiston" gazetasi muhбири savollariga bergan javoblarida shunday deydi: ... Shu o'rinda mustaqillik va istiqloq yo'lida birinchi qadam qo'yayotgan davrda yagona oila bo'lib yashayotgan ko'p millatli xalqimizning dolzab shoriga aylanga so'zlarni eslamoqchiman. Shu aziz vatan barchamizniki, uning farovon kelajagi va iqboli uchun yashash, kurashish biz uchun eng katta baxtdir. Ishonchim komilki, barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlikka chorlayotgan bunday shior milliy g'oyamiz va tafakkurimizning asosiy mezoniga aylanib qolsa, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimizni ham asraydigan ezgu orzularimizni ro'yobga chiqaradigan asos bo'lib xizmat qilar edi.³⁹

Tarix saboqlaridan xulosa chiqarish vaqti ham keldi. Moddiy qiyinchiliklar og'ir sinov bo'lsa ham, uni mehnat va sabr-toqat bilan yengish mumkin, albatta. Bu g'oya har bir ota-ona, o'qituvchi, murabbiy, mahalla oqsoqoli va faoli qalbida so'nmas mash'al kabi yonib, yosh avlod uchun aniq va tushunarli bo'lishi kerak va faqat shundagina tinchlik va barqarorlik, ezgu maqsadlar va buyuk kelajakka erishish mumkin bo'ladi.

Yana bir narsani ta'kidlash zarur. Yoshlarning ta'lim - tarbiyasiga nisbatan rasmiyatchilik bu ishni umuman olib bormagandan ko'ra zararlidir. Ayrim manfur kimsalarning siyosiy shuhratparastlik, boylik orttirish ilinjida yoshlar ongiga o'z xalqining qoni evaziga diniy murossasizlik, millatchilik, separatizm, fashizm, mahalliychilik, jinoiy sheriklik kabi g'oya va g'oyachalarni tiqishtirishga harakat qilishini anglashimiz muhimdir. Ular o'zlarining bu jirkanch niyatlarini qanday amalga oshirishlarini hammamiz 1999-yil 16-fevralda ko'rdik. Jinoyatchilar, albatta, jazolanadilar. Lekin, bunday fojealarning qaytarilmasligi, g'oyaviy bo'shliq bo'lmasligi uchun hammamiz bor imkoniyatlarimizdan foydalanishimiz, qo'ldan kelgancha harakat qilishimiz lozim.

³⁹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda –T. 2000, 333–334-bet.

Yangicha tafakkur tizimidagi evolyutsion uslub asosida milliy mafkura va uning asosiy o'zagi bo'lgan milliy g'oya yotadi. Shuni eslatib o'tish lozimki, milliy g'oya - bu faqatgina o'zbek millatinigina birlashishga chaqiruvchi mavhum shior bo'lmasdan, balki uni yanada kengroq jabhada butun aholini qamrab oluvchi, barchani jipslashtiruvchi omil sifatida ham olib qarash lozim. Biz bu joyda millatidan qat'iy nazar butun O'zbekiston xalqini va ularning har birining shaxsiy, butun jamiyat va davlat miqyosidagi manfaatlarini nazarda tutmoqdamiz.

1994-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti "Insonning xavfsizligi" dasturini e'lon qildi. Uning asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat: insonning xavfsizligi bo'lmasdan, u butun xalqning xavfsizligi demakdir; bu faqatgina qurolga egalik qilish orqali erishilgan xavfsizlik bo'lmasdan, u rivojlanish evaziga erishilgan xavfsizlikdir; bu faqatgina davlatlar o'rtasidagi mojarolardan himoya bo'lib qolmasdan, u xalqlar o'rtasidagi mojarolardan ham himoyadir.

XXI asr arafasida shaxs, uning farovonligi va xavfsizligi milliy va xalqaro xavfsizlikning o'zagi bo'lib bormoqda. Aniqroq aytganda, bu odamlarning yangi maqsad va ideallar bilan ommaviy-siyosiy uyg'onishida ifodalanmoqda, bu esa shaxsning rivojlanishi va insonlarning bir-biri bilan kelishishida muhim rol o'ynaydi. Jamiyatga yuksak ideallar, g'oyalar va maqsadlar kerak va bu maqsadlarda uni amalga oshirish texnologiyasi va harakat dasturini shakllantirish kerak. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, hozirgi vazifa "...yurtimizdagi turli millat, ijtimoiy toifa va kasb-korga mansub bo'lgan keng ommani ogohlikka chaqirish, mavjud xavf va tahdidlarning mohiyatini anglab yetish, ular haqida jamoatchilik fikrini uyg'otish, eng muhimi milliy g'oya, milliy mafkura asosida xalqimizni birlashtirish, yanada jipslashtirishdan iboratdir. -Biz, - deb yozadi Prezident, - xalqni birlashtiruvchi, yuksak marralar sari chorlovchi mafkura - milliy g'oyaning hayotdagi ahamiyati, uning mazmun- mohiyati, ufqlarini umumiy tarzda belgilab oldik. Endi ijtimoiy soha olimlar, mutaxassislar, ilg'or fikrli ziyolilar bu boradadagi izlanishlarni chuqurlashtirib, umumlashgan nazariy

xulosalar ishlab chiqishlari, qisqa aytganda, mafkuramizning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, haqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab berishlari lozim.

Bugungi kunda milliy mafkurani jamiyatda kishilarning xavfsizligi va farovonligi, fuqarolar tinchligi va milliy hamjihatligini idrok etish, umumjamiyat tamoyili bilan ijtimoiy evolyutsiya yo'lidan borish g'oyasi orqali shakllantirish mumkin. Bir-biriga yon bosish, toqatlilik, hamdardlik, umumiy ish uchun har birimizning mas'ulligimiz eng ulug' qadriyatlar bo'lishi lozim.

Bizning siyosatimizning bosh yo'nalishini O'zbekiston xavfsizligi tashkil etadi. Albatta, hozircha turmushimiz biz orzu etgan darajada emas. Hali yetishmovchiliklar, qiyinchiliklar va yo'limizda to'siqlar ham oz emas. Ammo shunday murakkab bir vaziyatda odamlar omonligi, mamlakatimiz tinchligini ta'minlashga erishayotganimiz, o'ylaymanki, bizning eng katta yutug'umizdir.⁴⁰

Ma'lumki, jamiyatda barqarorlik, xavfsizlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni hamda sarhadlarimiz daxlsizligi va yaxlitligini ta'minlash masalalari davlatimiz rahbari tomonidan mustaqillikning birinchi kunlaridan boshlab kun tartibiga qo'yilgan edi. Bu borada ulkan yutuqlarimiz bugungi kunda birgina xalqimiz tomonidan qadrlanib e'zozlanibgina qolmasdan, balki xalqaro jamiyatning diqqat markaziga tushdi. Mustaqillikni biz bilan barobar qo'lga kiritgan yangi mustaqil davlatlar orasida O'zbekistonning bu sohada erishgan yutuqlarini barcha tan olmoqda. Shu tufayli ham yurtimiz jahon siyosatida jiddiy mavqega ega bo'lib bormoqda.

Lekin 16-fevralda mamlakatimizning konstitutsiyaviy tuzumiga qarshi uyushtirilgan to'ntarishga urunish bugun ko'pgina vazifalarni qayta ko'rib chiqishni, yangi amaliy yondashuvlarni taqazo etmoqda. Jumladan, barqarorlik, xavfsizlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikni hamda sarhadlarimiz daxlsizligi va hududimiz yaxlitligini ta'minlash muammolari ham o'zgacha ahamiyat kasb

⁴⁰ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. ("Tafakkur" jurnali bosh muharririning savollariga javoblari) VII jild, 84-102-bet.

etmoqda, ularga nisbatan yangicha yondashuvlar, amaliy takliflar ishlab chiqish zamon amri, xalqimiz xohish irodasiga aylanmoqda.

16-fevral voqealaridan keyingi bosqich yangi milliy manfaatlar tizimi, yangi rivojlanish strategiyasi ishlab chiqilishini taqazo etmoqda. Jumladan, hayot-mamot ahamiyatiga ega bo'layotgan milliy manfaatlar majmui bevosita diniy ekstremizm niqobi bilan mamlakat tashqarisi va ichkarisida birlashgan siyosiy birlashgan terrorchilik kuchlariga qarshi kurash bilan bog'liq. Shu bois, endilikda barqarorlik va xavfsizlik tushunchalari o'zining ilgari sezilmagan boshqa qirralarini namoyon qilmoqda. Ya'ni hayot-mamot ahamiyatiga ega bo'lgan milliy manfaatlar va xavfsizlik strategiyasiga yangi ustuvorlik kirib keldiki, bu, o'z navbatida, davlatimizning tegishli muassasalarining mas'uliyatini beqiyos oshiradi. Biz barpo etayotgan davlat, eng avvalo, umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida boshqa xalqlar erishgan tajribalarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanishi lozim.⁴¹

Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz.⁴²

Biz fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini-o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir.⁴³

Jahon davlatlari tajribasidan kelib chiqib, XXI asr bo'sag'asida milliy manfaatlarimiz ustuvorliklarini joy joyiga qo'yishga harakat qilsak, quyidagi holat vujudga kelishi mumkin:

Hayot-mamot ahamiyatiga ega ustuvorliklar: milliy davlatchiligimizni shakllantirish jarayonini muttasil bosqichma- bosqich davom ettirish; davlatimizni

⁴¹ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqidan, 1995 yil fevral) III jild 7 – bet

⁴² Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqidan, 1995 yil fevral) III jild 10 – bet.

⁴³ Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqidan, 1995 yil fevral) III jild 11 – bet..

tanlagan demokratik mustaqillik yo'lidan og'dirish, konstitutsiyaviy-siyosiy tuzumni barbod qilishga va qonuniy saylangan rahbariyatga tajovuz qilishga qaratilgan siyosiy terrorchilikka, diniy ekstremizmga zarba berishdan; mamlakatda siyosiy barqarorlikni ta'minlash; iqtisodiy, madaniy va ma'naviy ravnaqi; uning kuch-qudrati va salohiyatini mustahkamlash uchun rivojlangan demokratik davlatlar tizimidan joy olish; xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyotni uzoq muddat davomida ta'minlash ishiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan, o'zaro teng sherikchilikka ko'maklasha oladigan barcha davlatlar va nufuzli tashkilotlar bilan jiddiy, oshkora hamkorlikni yo'lga qo'yish; davlatimizning xalqaro hamda mintaqaviy manfaatlari mos kelgan davlatlar, xalqaro mintaqaviy ittifoqlar, tashkilotlar bilan xavfsizligimizni ta'minlash nuqtai nazaridan aloqalarni mustahkamlash; yaqin mintaqalarda mavjud bo'lgan siyosiy mojarolarga barham berishning samarali yo'llari, mexanizmini shakllantirish; mamlakatda millatlar va fuqarolararo totuvlik jarayonini yanada kuchaytirish; qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonchga asoslangan hamkorlik tizimini shakllantirish; har qanday xavfni o'z vaqtida bartaraf qila oladigan xavfsizlik tizimini yaratishdan iboratdir.⁴⁴

Eng muhim manfaatlar ustuvorliklari asosini esa, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalardagi islohotlarni chuqurlashtirish; xalqaro xavfsizlik va olam yaxlitlik ishiga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin bo'lgan mintaqaviy hakamlikka da'vo qilish, gegemonizm, va g'oyalariga qarshi ma'rifiy kurash olib borish; eng qudratli hamda yetakchi davlatlar tomonidan mintaqamizning o'z ta'sir doirasiga kiritilishining oldini olish; turli-tuman tashkilotlardan o'z siyosiy manfaatlari yo'lida foydalanishga intilish tendensiyalariga o'z vaqtida zarba berish; mustaqil demokratik ma'rifiy tashqi va ichki siyosat olib borish singari yo'nalishlar tashkil etadi.

⁴⁴ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda –T. 2000. 338–339-bet.

Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat, ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir.⁴⁵ Yana bir haqiqatni takrorlab o'tishga to'g'ri keladi, mustaqillik, tanlangan istiqlool yo'li, avvalambor, har qaysi inson, fuqaro butun jamiyat kelajagi uchun munosib hayot, farovonlik, barqarorlik baxsh etgan taqdirdagina xalqimiz uchun ma'qul bo'lishi muqarrardir.

Bu borada ko'zlangan marralarni qo'lga kiritishning bosh kafolati esa davlatimiz ishlab chiqqan demokratik zamonaviy tashqi siyosiy modelidir. Bir so'z bilan ifodalaydigan bo'lsak, mamlakatimizda milliy manfaatlar va ustuvorliklarni maqbul darajada amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha shart- sharoitlar; ma'rifiy tinchliksevar, tashqi siyosiy hamda harbiy konsepsiyalar, siyosiy rahbariyatning sobitqadamligi va nihoyat ko'tarinki siyosiy ruh shakllangan.

Yutrboshimiz Oliy Majlisning XIV sessiyasida qilgan ma'ruzasi hamda keyingi turli nufuzli darajalarda chiqishlarida mintaqada va umuman dunyoning boshqa qismlarida vaziyatning keskinlashganligi O'zbekiston Respublikasi xalqining umumiy kayfiyatiga ta'sir qilishini inobatga olib, ba'zi bir aniq chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarurligini uqtirgan edi.⁴⁶

Jahon miqyosida voqealarning borishi shundan dalolat beradiki, insoniyat hamon osoyishta yashash imkoniyatlariga ehtiyoj sezib turmoqda. Ammo, kunda-kunora uning tinchligi va osoyishtaligi, kelajakka umid to'la ko'z bilan boqa olishiga xalaqit berayotgan turli-tuman noxush jarayonlar, kishilarning umriga zomin bo'layotgan to'qnashuvlar yuz bermoqda. Dunyoning turli joylarida har xil sabab va bahonalar bilan harbiy to'qnashuvlar davom etmoqda. Kichik miqyosdagi urushlar ko'paymoqda. Umuman, qaysi g'oyaga, me'yorlarga tayanmasin, urushning har qanday turi insonning tabiiy haq-huquqlariga ziddir. Millatning xavfsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan urush harakatlarining birontasini oqlash mumkin emas. Hatto, dunyodagi eng demokratik, qudratli davlat yoki davlatlar

⁴⁵ Karimov I. A. Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi umumiy yig'ilishda so'zlagan nutqidan, 1994-yil iyul) II jild 261-bet

⁴⁶ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda –T.2000, 340–341-betlar

ittifoqiga ham tinch aholiga qurbonlar keltiruvchi harbiy urinishlarni amalga oshirish huquqi berilmagan.

2.3. Madaniyat va millatlararo totuvlik - umumbashariy qadriyat.

Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lib, millatning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklari, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotini har tomonlama qamrab oladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi uning tuyg'usida ham aks etadi. Milliy tuyg'u-tabiyy tuyg'udir. Unda millatning tarixi, hozirgi ahvoli, milliy ruhiyati va xususiyatini tushunish hissiy shaklda mujassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa, u o'zining qaysi millatga mansub ekanligini his etmasa, uning o'z milliy manfaat va qadriyatlarini qanday qilib anglashini tasavvur qilish qiyin. Toki millatlar, milliy manfaatlar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan mahrum qilishga urinish tarix va insoniyat uchun eng katta jinoyat ekanligini bugun tushunib yetayapmiz. Millatlarning o'z-o'zini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlari bilan birga milliy qadriyatlari ham kuchayib, mustahkamlanib boraveradi.

Milliy qadriyatlarning kuchayib borishi mahdudlikka, milliy xudbinlikka, o'z millati manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish, boshqa millatlar va xalqlar manfaatlarini hisobga olmaslikka olib kelmasligi kerak. Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta'sir ko'rsatmasin, har bir millat uchun ma'naviy kamolotning asosiy yo'li va mezoni milliy qadriyatlar bo'lib qolaveradi. Biroq millatning yaxshi urf-odatlarini, marosimlarini boshqa millat ruhi, milliy ma'naviy ehtiyoji va talablariga mos kelganidagina shu millat hayotida chuqur tomir otish imkoniga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy madaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Milliy qadriyatlarni qandaydir o'zgarmas hodisa deb qaramaslik kerak. Milliy taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan

ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotning takomillashib borishi, yashash va mehnat qilish sharoitlari o'zgarishi bilan milliy qadriyatlar ham rivojlanib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar insonlarda axloq va madaniyatning ustunligini e'tirof etishda, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar hamkorligining umumiy yo'nalishini hosil qilish va dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy ishlarni tushunishda, madaniy-ma'naviy, ilmiy-texnikaviy, harbiy sohani, mamlakatlar va xalqlararo aloqani rivojlantirishda ko'rinadi.

Umuminsoniy qadriyatlar jahon sivilizatsiyasining yaxlitligi, uning barcha bosqichlari bir-biri bilan bevosita bog'llanganligini ifodasidir. Bu jihatdan qaraganda, umuminsoniy va milliy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir.

Umuminsbniy qadriyatlar milliy qadriyatlardan mazmun jihatdan chuqur va keng bo'lib, uni o'z ichiga oladi. Demak, umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad va intilishlarining yaxlitligi hamda umumiyligini ifodalaydi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyodagi birorta xalq va millat o'zidan boshqa xalq va millatdan, umumiy jahon sivilizatsiyasidan alohida tarixga ega emas. Millatlar boshqa xalqlarning yutuqlaridan foydalanmay turib rivojlana olmaydi. Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy rivojlanish tarixi bir-biri bilan uzviy bog'lanib, taraqqiy etib kelgan. Zotan, hamma vaqt butun jahon iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti xalqlar, millatlar, elatlar, urug'lar va qabilalar tarixi, taqdirlarining o'zaro bog'lanishi, bir-birini boyitishi asosida amalga oshib kelgan. Agar biror millat boshqa millatlar bilan umumiy xususiyatlarga ega bo'lmay, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqada bog'lanmay, ulardan o'rganmay va o'zidagi yutuqlarni boshqalar bilan baham ko'rmaganda edi, baxtsiz millat bo'lar edi. Natijada bunday millat jahon taraqqiyoti samaralaridan foydalana olmagan ham bo'lardi.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, millatlar, elatlarning o'tmishdagi, hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Tabiatni muhofaza qilish, ekologik tarbiya va madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning sihat-salomatligini ta'minlash, oziq-ovqat, energiya va yoqilg'i tanqisligini tugatish, madaniy boyliklarni, sivilizatsiyani eson-omon saqlab qolish, urushlarning boshlanishiga yo'l qo'ymaslik, tinchlikni saqlab qolish - umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlardir. Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlar va millatlargagina mansub bo'lmay, bashariyatning mulkidir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liqdir. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta'sir etadi, ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan boyitadi. Umuminsoniy qadriyatlar kishilarning talab-ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan tasavvurlari, tafakkurlari, kelajak orzu-istaklari, e'tiqodlari, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan va hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositalaridan hisoblanadi. Umuminsoniy ma'naviy boyliklarga ilm-fan, falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot, me'morchilik, san'at asarlari, kashfiyot, ixtirolar, ma'naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlilik, umuminsoniy axloqiy me'yorlar kiradi.

Vatan ozodligi, inson salomatligi, intellektual va aqliy mulklar har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalanish imkoniyatlari, adolat, mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik, tinch-totuvlik, do'stlik, halollik, vatanparvarlik, ota-onani hurmat qilish, farzandlar haqida g'amxo'rlik, vijdon, burch, baynalminallik kabi qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar sirasiga kiradi.

Xalqlarning ulug'vorligi milliy ruhda emas, balki umuminsoniy xususiyatlarga ega ekanligida, jahon sivilizatsiyasiga qo'shadigan hissasidir. Milliy manfaatlarni milliy qadriyatlarni umuminsoniy manfaatlarga va qadriyatlarga qarama-qarshi qo'yish, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa muamolarni qaysidir millat va elatning manfaatlariga xilof ravishda hal etishga intilish, milliy manfaat bahonasida milliy xudbinlikni, tekin xo'rlikni olqishlash millatlararo munosabatlar taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Bir millatning manfaat va qadriyatlari boshqa millatnikidan ajralmagan holda o'rganilishi kerak. Mamlakatimizda yashovchi har bir millat va elat singari o'zbek xalqining ham o'ziga yarasha ajoyib moddiy,

ma'naviy, tarixiy qadriyatlari bor. Ularni oqilona va xolisona o'rganish mustaqillik sharoitidagi iqtisodiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biridir. Zotan, milliy madaniyat va an'analarga, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash-millatning o'ziga hurmat bilan qarashining asosiy bo'g'inidir.

Mamlakatimizda inson qadrini e'zozlash, uning obro'-nomusini tiklashda mintaqamizdagi shaharlar, joylar, viloyatlar, tumanlar, xo'jaliklar, maktablar, ko'chalarga xalqimizning ulug' farzandlari nomlarining berilishi tarbiyaviy ahamiyat kasb etayotganligini ham unutmasligimiz kerak. Bizningcha, Xorazmiy, Amir Temur, Navoiy, Bobur kabi buyuk insonlarning muborak nomlarini yirik ilmiy markazlar, mashhur universitetlar, harbiy o'quv oliygohlariga berilshi, tarixiy haqiqatga mos tushgan. Insonni e'zozlash, uning qadr-qimmatini joyiga qo'yish, milliy qadriyatlarimizni tiklash xalqimizning qadimiy va boy tarixiga, an'analari va urf-odatlariga hurmat bilan qarash demakdir. Shu ma'noda milliylik millat endigina oyoqqa turayotgan va milliy davlatchilik qaror topayotgan bosqichda ijobiy vazifani o'taydi

Ma'lumki, g'arbchilik ruhida faoliyat ko'rsatgan Sho'ro fani ilmiylikka emas, balki mafkuraviylikka asoslangan edi. Qadimgi Sharq deganda Yevropa xalqlari ko'proq muloqotda bo'lgan Misr, Ossuriya, Bobil va G'arbiy Osiyo tushunilar va faqat ularning tarixi bilan cheklanilar edi. Shu ma'noda umuminsoniy qadriyatlar negizida 2 ta konsepsiya yotadi.

1. Yevropamarkazchilik konsepsiyasi oqimi.
2. Osiyomarkazchilik konsepsiyasi oqimi.

Sivilizatsiya va umuman madaniyat rivojlanishdagi murakkab, uzoq va qarama-qarshi kurash shunga olib keldiki, turli irqchilik nazariyalari, mustamlakachilik mafkurasi va siyosati yuzaga kelishi bilan go'yoki G'arb ilg'or, rivojlanuvchi, taraqqiy etuvchi sifatida, Sharq esa sustkash, dangasa va an'analarga yopishib olgan tarzda qaralib, bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yildi. Bu holat fanda ham ko'zga tashlandi. Unda G'arb kishisining miyasi va tafakkur tarzi Sharq kishisining miyasi va tafakkur tarzidan mutlaqo boshqacha, ya'ni ustun ekanligi

ta'kidlanadi. Tabiiyki, har qanday harakatga qarshi tezkor qarshi harakat vujudga keladi. Shu bois Sharqda ham darhol buning aksini isbotlashga kirishib ketildi, ya'ni sharqliklar ustunliklarini da'vo qila boshlashdi.

Har ikkala markazchilik sentrizm vakillari, haqiqiy madaniyat sivilizatsiyasini chetda qoldirib, o'zlarini yo'qotib, hatto qadimgi faylasuflarning fikrlarini tan olmay qo'yishdi. Shu o'rinda qadimgi Yunon faylasufi Geraklitning "Sog'lom fikr hamma uchun umumiy" deganini eslash zarur.

Shu boisdan ham bugungi kunda asosiy yo'nalishni umuminsoniy qadriyatlarga qaratish-zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishi va mustahkamlanishining zaruriy sharti va omilidir. Har bir xalq, millat o'z tizimida haqiqiy, o'tkinchi qadriyatlarga tayanishini tafakkurning eng muhim metodologik qoidalaridan biri sifatida namoyon bo'lishi deb bilmoq lozim.

Bu sohadagi asosiy qoidalar mamlakat Prezidenti Islom Karimovning 1995-yil 3-oktabrda Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida quyidagicha bayon etilgan: "Ayniqsa, tanlagan o'z taraqqiyot va islohot yo'lidan tezkorlik bilan olg'a siljishga kuchli ruhiy quvvat beradigan milliy madaniyatimiz, Sharq falsafasining hayot-baxsh va teran buloqlaridan bahramand bo'lish muhimdir".

Qadimgi Rim imperiyasida "Nur Sharqdan" degan keng tarqalgan maqol bo'lgan. Ha, yaqin vaqtlargacha Yunon va Rimda ilmu fanning rivoj topishida Misr, umuman Yaqin Sharq ta'siri ostida emas, balki zardushtiylik ta'limoti asosida shakllangan.

Sharq madaniyati, ilm-fani, falsafasi va adabiyotining ta'siri Fransiya va Italiyada sezilarli darajada kuchli bo'lgan. Parijda Sharq she'riyatining ta'siri ostida Trubadur va tutuverlar lirikasi, Italiyada "yangi yoqimli uslub" shakllanganligi buning isboti emasmi?

Demak, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyati va mazmuniga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Inson va insoniyat-eng oliy qadriyatlardir.

2. Insoniyatning mavjud bo'lishi uchun zarur bo'lgan tabiiy imkoniyatlar-mehnat, mehnat qurollari va mehnat mahsulotlarining birligi moddiy hayot qadriyatlari deyiladi.

3. Jamiyat hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan va insoniyatning taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan ijtimoiy soha va tuzulmalar (oilalar, millatlar, sinf, davlat kabilar) majburiy ijtimoiy hayot qadriyatlari tushunchasi sifatida ifodalanadi.

4. Kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ilmiy bilimlar, falsafiy, axloqiy, estetik g'oya va ideallar yig'indisi ma'naviy hayot qadriyatlari deb ataladi.

Darhaqiqat, umuminsoniy qadriyat, bu avvalo, bashariyatning mavjud bo'lishi va yashab qolishini ta'minlaydigan tinchlik, umumjahon sivilizatsiyasi va madaniyati kabi tushunchalar bilan bevosita bog'liqsir. Ayniqsa, hozirgi atom asrida insoniyatning eng oliy qadriyati bu tinchlik va osoyishtalikni har qanday yo'l bilan bo'lsada, saqlab qolishdan iboratdir. Busiz boshqa har qanday qadriyat haqida gapirish aslo mumkin emas. Qadriyatlar insoniy munosabatlar va umuman insoniyatsiz u hech qanday ahamiyat kasb etmaydi va tushuncha sifatida ham u biror ma'noni anglatmaydi. Demak, faqat inson va insoniy faoliyat tufayligina qadriyat tushunchasining haqiqiy ma'nosini ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong doirasida hamda shunga muvofiq tarzda kishilarning ijtimoiy faoliyati sohasiga tadbiquan tushunish mumkin.

Umuman olganda, mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek, "Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlar, tili va ruhi negiziga qurilgan milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda insonni kelajakka muhabbat, insonparvarlik ruhida tarbiyalashni, halollikni, mardlik va sabr-bardoshlilikni, adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim. Bu hurma'no fikr-mulohazalarda ta'lim-tarbiya jarayoni bilan umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o'zaro aloqasi hamda yangicha metodologik yondoshuvning bugun mazmun-mohiyati to'laligicha ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytganda, odamlarning o'zida jamiyatni yangilash va o'zgartirish zarurligiga ishonch tug'dirmasdan turib harakatlantiruvchi kuchlarni va qadriyatlarga munosabatlarini, daliliy sabablarini o'zgartirmasdan turib isloh qilish yo'lidan amalda olg'a borish, ayniqsa yangi jamiyat barpo etish, tamomila yangi munosablarni joriy etish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, jamiyatda har bir sohaga bo'lgan e'tibor kabi madaniy-ma'naviy sohaga bo'lgan e'tibor ham juda katta bo'lib bormoqda. Sovet tuzumi olib borgan siyosat natijasida shakllanib qolgan ma'naviy qashshoqlikni tugatish borasida ham bir qancha tadbirlar o'tkazilmoqda. Mustaqillik tufayli Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada ham mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili sifatida milliy-ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu, albatta, bejiz emas.

Ma'naviyat - jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy topadi. Bu, o'z navbatida, har bir shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan zamin bo'lib xizmat qiladi. Buni chuqur his qilgan va o'z qalbidan o'tkazgan Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik jamiyatni qurishining nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotini qayta qurishni milliy-ma'naviy tiklanish bilan uyg'un holatda qurish kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. Ma'naviyatning inson va millat kamolotidagi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniqlab bilib olish hamda shu asosda uni rivojlantirish, uning mohiyatini hamda mazmunini ilmiy jihatdan tahlil qilishni taqozo etadi. Chunki ma'naviyatning mohiyati va mazmunini bilib olmasdan turib, uning inson, millat, xalq va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sir imkoniyatlarini ham aniq tasavvur etib bo'lmaydi. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, sobiq sho'rolar tizimi sharoitida ma'naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi, inson kamolotidagi o'rni doimo

katta bo'lib ketganligi bugungi kun darajasidek o'rganilmagan edi. U ma'naviy madaniyatning tarmog'i sifatida yoki olimlar asarlarida tilga olingan xolos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishdan, xalqning ma'naviy sarchashmalarga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz".⁴⁷

Avvalo, jamiyatimiz kundalik hayotida xalq turmushining tajribasiga, milliy va madaniy an'alariga mos keladigan chinakam demokratiya qoidalari tobora ko'proq qaror topayotganini jamiyat ma'naviy va madaniy hayotini yanada yaxshilashda katta rol o'ynaydi. Umumbashariy qadriyatlar usutvorligi mustahkamlanmoqda, yangi demoktarik me'yorlar hayotimizga tobora yaqqol kirib kelmoqda. Inson va fuqaro tafakkuri hamda dunyoqarashi o'zgarmoqda, uning siyosiy faolligi oshmoqda. Davlat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar demokratik tus olmoqda.

Ma'naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo'lganligi uchun ham uni bir jumlada ifodalash juda ham mushkul. Ma'naviyat va madaniyat bir-biri bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi. Ma'naviyat insonning qalbi, dunyoqarashi va ruhiyatida namoyon bo'lsa, madaniyat esa insonning yurish-turishi, urf-odatlar, marosimlarida namoyon bo'ladi. Madaniyatli inson "buyuk madaniyat sohibi" deganda ana shu fazilatlarni o'zida namoyon qilgan kishilarga aytiladi.

Ma'naviyat - ko'proq insonning ichki, botiniy, yashirin dunyosini aks ettirishdir. Insonning ichki, botiniy dunyosi esa gavhar to'la tubsiz dengiz singaridir. Bu dengizdan qancha gavhar olsangiz tugamagani singari madaniyatli inson ichki dunyosi ham tubsiz, rang-barang tarzda namoyon bo'ladi. Madaniyat insonning moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratish va o'zlashtirishdagi faoliyatini ifodalaydi. U inson aql-idroki, iste'dodi va mehnati mahsulidir.

⁴⁷I.A.Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari". T. "O'zbekiston" 1998-yil 524-bet

II bob bo'yicha xulosalar

Bizga ma'lumki, mustaqilligimiz tufayli juda ko'p sohalarda yutuqlarni qo'lga kiritdik. Bugun biz yangi hayot, huquqiy-demokratik davlat barpo etayotgan ekanmiz, zamonning o'zi jamiyatimizda hanuz saqlanib kelayotgan, umrini o'tab bo'lgan ba'zi qarashlarni tubdan o'zgartirishga, davr bilan hamnafas bo'lib, yangicha fikrlashga da'vat etayotganini hisobga olish lozim.⁴⁸ Mustaqillikning ahamiyati shundan iboratki, u millat oldida yangi imkoniyatlar ochadi, uning rivojlanishini tezlashtiradi. Ana shu sababli har bir xalq, har bir millat mustaqillikni orzu qiladi. O'zbek xalqi ana shu orzusiga erishdi.

“Endigi dolzarb vazifamiz, – deydi, Prezidentimiz I.A.Karimov, – bu jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi-yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'qituvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib berish va ularni yangi hayot, zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol va jo'shqin ishtirokchilariga aylantirishdan iborat”. Bu vazifani bajarish esa o'z-o'zidan bo'lmaydi. Mustaqillik imkoniyat beradi, yo'l ochadi, ammo bu imkoniyatdan foydalanib, mamlakat taraqqiyotini yangi darajaga ko'tarish bizga, bizning mehnatimiz, uyushqoqligimiz, tashabbuskorligimizga bog'liq.

O'zbekiston aholisining, uyushqoqligida, birga harakati va mehnatining samaradorligidadir. Bu borada yuksak ko'rsatkichlarga erishmoq uchun mamlakatimizning barcha aholisi o'z mehnatining zoye ketmasligida va bunday natijalarga erishishda qator qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ulardan biri O'zbekiston aholisining ko'p millat va elatlardan tashkil topganligidir. Ularning har biri o'z tili, milliy urf-odatlari, milliy madaniyati, ma'naviyati, qoida va an'analariga ega. Bu narsalarni hech bir vaqt inkor etib bo'lmaydi.

⁴⁸ Karimov. I. A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T. O'zbekiston, 2009, 22 – bet.

III bob O'zbekistonning millatlararo mojarolarni bartaraf etishdagi tajribasi

3.1. Sovet mustabid tizimi sharoitida millatlararo mojarolarning paydo bo'lishi sabablari.

Bolsheviklar partiyasi bosh bo'lgan sovet hokimiyati Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan vatanparvar kuchlar harakatini daf etishga muvaffaq bo'lgach, endilikda bu hududda uzoqqa mo'ljallangan o'z makkorona rejalarini amalga oshirishga kirishdi.

Shu maqsadni ko'zlab u XX asrning 20-yillari boshlaridan bu zaminda mustamlakachilarga xos "orani buz, hokimlik qil" qabilidagi o'z milliy siyosatini hayotga izchil tadbqiq etish yo'lini tutdi. Aslida sovetlarning milliy siyosati chorizmning ko'p zamonlar bu yurtida yuritib kelgan shovinistik, ulug' davlatchilik siyosatidan mohiyat e'tibori bilan farq qilmasdi. Faqat uning shakli-shamoyili o'zgargan edi, xolos. Gap shundaki, chorizm hukmronligi davrida chekka o'lkalar xalqlari ochiq-oshkora tarzda kamsitilar, ularning insoniy qadr-qimmatini, ornomusi, asliy milliy qadriyatlari tahqirlanar edi. Sovet mutasaddilari esa o'zlarining niqoblangan soxta ishlari, yolg'on-yashiq va'dalari bilan mazlum millat kishilarini o'z hukmlariga bo'ysundirishga intildilar. Turkiston xalqlari o'z milliy davlatchiligini tiklash va rivojlantirishga intildi. 1920-yil yanvarida bo'lib o'tgan Turkiston Kompartiyasining V o'lka konferensiyasida Turkiston ASSR MIQ raisi T. Risqulov so'zga chiqib "Yagona Turkiston g'oyasi"ni ilgari suradi, asosan turkiy xalqlardan iborat Turkiston ASSRni Turk Respublikasi, Turkiston Kompartiyasini Turk kompartiyasi, deb o'zgartirishni taklif qiladi. Bu takliflar konferensiyada, shuningdek, o'lka ijtimoiy-siyosiy hayotida, RKP(b) Markazqo'mi, uning Siyosiy byurosi, sovet hokimiyati doiralarida turli bahslarga sabab bo'ladi. T. Risqulov takliflari millatchilik ruhidagi qarashlar deb baholandi. T. Risqulov, N. Xo'jayev va boshqalar tarkibida tuzilgan delegatsiya Moskvaga borib, sovet hukumati oldiga Turkkomissiyani tugatish, Turkistonga o'z qurolli kuchlariga ega bo'lish huquqini berish, Sharq mamlakatlari bilan aloqa o'rnatishda

Turkiston hukumatiga mustaqillik berish kabi talablarni qo'ydilar. Shu boisdan "Turkiston masalasi" bir necha bor Markazda, RKP(b) Markaziy Qo'mitasi Siyosiy byurosining 1920-yil mart-iyun oylaridagi majlislarida muhokama qilindi. Oqibatda natija shunday bo'ldiki, mazlum xalqlar "dohiysi" va "najotkori" Lenin, bu masalani 1920-yil 29-iyulida ko'rgan RKP(b) Markazqo'mi Siyosiy byurosi turkistonlik delegatsiya iltimosnomasiga ijobiy baho bermadi. Buning aksicha, Sovet hukumati va partiya rahbariyati o'lkadagi vaziyatni tezlikda bartaraf etish uchun shoshilinch tarzda "RKP(b)ning Turkistondagi asosiy vazifalari to'g'risida" degan nom ostida bir necha qarorlar qabul qildi. Jumladan, o'lka hayoti ustidan nazoratni kuchaytirish, sovet hokimiyati negizlarini mustahkamlashga qaratilgan "Turkistonda hokimiyatni tashkil etish to'g'risida" maxsus qaror qabul qilindi. Unda Turkistonda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, RSFSR Xalq Komissarlari Soveti va RKP(b) Markaziy Qo'mitasining doimiy vakolatxonasi bo'lishi zarur deb ko'rsatildi. Unda, shuningdek, federal hukumat bilan Turkistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining vazifalari doirasi aniq-ravshan belgilab qo'yildi. Shunday qilib, o'lka xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilash, o'z milliy davlatchiligini o'z xohishlaricha, huquqiy asosda tashkil qilish borasidagi yana bir urinishi barham topdirildi. Hamma gap shundaki, Rossiya Sovet Federatsiyasi hukumati Turkistonning emin-erkin rivojlanish yo'lidan ilgarilab borishini emas, balki uni doimiy o'z nazoratlari ostida bo'lishini xohlardilar. O'lkanig mehnatsevar, jafokash xalqi, uning bitmas-tuganmas boyliklari, tabiiy va mineral resurslari Markaz foydasiga ishlashi ularning birdan-bir muddaolari edi. Hukmron Markaz tashabbusi bilan tashkil etilgan Turkkomissiya, O'rta Osiyo Byurosi, O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashi singari nufuzli organlarning o'lka hayotining barcha jabahalarini o'z nazoratiga olish, bo'ysindirish yo'lida harakat etib kelganligining boisi ham mana shundadir.

Bolsheviklar boshliq sovetlar hokimiyati sobiq chor imperiyasi hududlarida vujudga kelgan mustaqil sovet respublikalari jilovini o'z qo'lga olish maqsadida sovet respublikalari ittifoqini tuzishga, ularni RSFSR atrofiga jipslashtirishga

asosiy e'tibor qaratdi. RSFSR hukumati 1918-1920-yillarda yangi sovet respublikalariga diplomatik, siyosiy-iqtisodiy, harbiy, moliyaviy ta'sir o'tkazib bordi. Garchi bo'lajak ittifoq sovet respublikalarining do'stlik va tenglikka asoslangan ixtiyoriy ittifoqi bo'ladi, deyilsada, biroq uzoqni ko'ra bilgan respublikalarning qator rahbarlari bunga qarshi edilar. Masalan, Ukrainada UKP(b) Markaziy Qo'mitasi kotiblari X.G.Rakovskiy va D.L.Pyatakov yagona ittifoq davlati g'oyasiga qarshi chiqib, umumittifoq hokimiyat organlari bo'lmagan "konfederatsiya" tuzishni yoqlab chiqdilar. RKP(b) Markaziy Qo'mitasi Siyosiy byurosida, bolsheviklar partiyasining s'yezdlari va plenumlarida, shuningdek sovet tashkilotlarida bu masala keng muhokama qilindi. Nihoyat, RKP(b) rahbarligida joylarda uzoq vaqt olib borilgan tashviqot-targ'ibot ishlari va ko'rsatilgan tazyiqlar o'z natijasini berdi. Ukraina, Belorussiya, Zakavkaze Federatsiyasi Kompartiyalari, bu respublikalar sovetlarining s'yezdlari RKP(b) Markazqo'mi-ning "SSSRni tuzish to'g'risida"gi takliflarini qo'llab-quvvatlashlarini bayon qildilar. 1922-yil 26-dekabrda Butunrossiya Sovetlarining X s'yezdi sovet respublikalarini yagona sovet davlatiga birlashtirishni zarur deb topdi. S'yezd o'zi saylagan delegatsiyaga USSR, BSSR va ZSFSR delegatsiyalari bilan birgalikda Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqini tashkil etish to'g'risidagi Deklaratsiya loyihasini ishlab chiqish va Ittifoq shartnomasini tayyorlashni topshirdi. 1922-yil 29-dekabrda Moskvada to'rt respublika vakolatli delegatsiyalarining konferensiyasi bo'lib o'tadi. Konferensiya SSSRni tuzish to'g'risida RKP(b) Markaziy Qo'mitasi plenumi tasdiqlagan Deklaratsiya va Shartnoma loyihasini muhokama qilib, uni maqullaydi. 30-dekabrda uni to'rt respublikalarning vakolatli delegatsiyalari imzolaydilar. 1922-yil 30-dekabrda Moskvada Butunittifoq Sovetlarining I s'yezdi o'z ishini boshlaydi. S'yezd RSFSR, USSR, ZSFSR va BSSR Sovetlari s'yezdlari saylagan vakolatli delegatlari imzolagan SSSRni tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya loyihasini ko'rib chiqib, Deklaratsiya va Ittifoq Shartnomasini tasdiqlaydi. S'yezd yangi ittifoq - SSSRning yuqori hokimiyat organlari - Markaziy Ijroiya Qo'mitasini va hukumatini tuzdi. SSSR MIQ 4 ta rais

(har bir respublikadan beshtadan) - RSFSRdan M.I.Kalinin, Ukrainadan G.I Petrovskiy, Belorussiyadan A.G Chervyakov, ZSFSR dan N.N.Narimanovdan iborat MIQ Rayosatini sayladi.V.I Lenin SSSR hukumatda - Xalq Komissarlari Soveti raisi etib tasdiqlandi. Shunday qilib, 1922-yil 30-dekabrda SSSR tuzildi. Bu ittifoqqa asos solgan barcha dasturulamal hujjatlar va g'oyalar qanchalik jimjimador ohanglarda bitilmasin va ular tenglik, barobarlik, birodarlik tushunchalarini aks ettirmasin, biroq amalda u hukumron Markaz uchun butun-butun xalqlarning taqdir-qismati, inon-ixtiyorini tamomila o'z tasarrufiga bo'isundirishga xizmat qilgan tuzoq rolini o'tab keldi.

O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi. Ma'lumki, O'rta Osiyo hududida qadim qadimdan tili, dini, tarixi, madaniyati, an'analari bir-biriga juda yaqin va mushtarak qardosh va qondosh xalqlar yashab kelganlar. Bu yerda istiqomat qilgan o'zbeklar, turkmanlar, tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlarning xo'jalik hayoti, turmush tarzi, udumlari ham o'xshash bo'lib, shu muqaddas ona zaminni o'zlarining asl Vatanlari deb bilganlar. Biroq, afsuslar bo'lsinki, pixini yorgan Sovet hokimiyati arboblari tarixan bir yagona hududda yashab kelgan birodar xalqlarni bir-biridan ajratib tashlash, ularning birlashib, yagona davlat tuzishlariga izn bermaslik uchun butun choralarni ishga soldilar. Bundan kuzatilgan bosh maqsad - o'lka xalqlarining birlashuviga, o'z istiqbolini va istiqbolini birgalikda bunyod etishiga yo'l qo'ymaslik va shu asosda Markazning bu yerdagi hukmronligiga, sotsialistik qayta qurish jarayonining avj olishiga keng maydon yaratish edi. Shu maqsadda Turkistonni milliy o'ziga xoslik, til birligi asosida bo'lib tashlash g'oyasi ilgari surildi. Markaz irodasini bajarishga da'vat etilgan Turkiston ishlari bo'yicha maxsus komissiya - Turkkomissiya zimmasiga o'lkada milliy davlat chegaralanishini o'tkazish va shu asosda bu hududda bir qator sovet milliy va muxtor respublikalarini tashkil qilish vazifasi yuklangan edi. Markaz mo'ljallayotgan milliy siyosat mazmuni, mohiyatidan xabardor bo'lgan Turkistonning ilg'or ziyolilari, uzoqni ko'ra bilgan donishmand arboblari o'lka

birligi, yaxlitligini, uning qardosh xalqlari jipsligini zo'r berib himoya qilishga urindilar. Biroq o'lka jilovini qo'lda mahkam tutgan bolshevik mutassadilar ularning haqqoniy fikrlarini hisobga olmadilar. Bugina emas, yagona va mustaqil Turkiston g'oyasi uchun kurashgan vatanparvar kuchlar, milliy ziyolilar millatchilikda, turkparastlikda va sovet hokimiyatiga qarshilikda ayblandilar.

Shunday qilib, O'rta Osiyoni milliy - hududiy jihatdan alohida respublikalarga bo'lib tashlash masalasi bir necha bor Markazda, Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarida, ularning Kompartiyalari plenumlarida, shuningdek, ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi organ - RKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosi Plenumida muhokama etilib, mahalliy xalqqa kuchli bosim o'tkazib borildi. Shu bilan birgalikda 1922-1923-yillarda yerli millatlarning bir qator rahbar xodimlari sovet hokimiyatining Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalarida olib borilayotgan milliy siyosatiga ochiqdan ochiq norozilik bildirib boshladilar. Ammo ularning fikr-qarashlari noto'g'ri topilib, o'zlari faol siyosiy hayotdan chetlatib borildi. RKP(b) MQ, uning O'rta Osiyo Byurosi Turkiston, Buxoro va Xorazm Kompartiyalari faoliyatiga tazyiq o'tkazib, milliy— hududiy chegaralash o'tkazish siyosatini ma'qullab, qaror qabul qilishlariga erishib bordi.

Milliy-hududiy chegaralanish masalasi 1924-yil 5-aprelda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosida, 11-mayda RKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosida ko'rib chiqildi. Unda O'rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish loyihasini tayyorlovchi maxsus komissiya tuzildi. Loyiha RKP(b) O'rta Osiyo Byurosining 1924-yil 2-iyundagi yig'ilishida muhokama etilib, asosan ma'qullandi. Bundan norozi bo'lgan mahalliy aholi vakillari, xususan Xorazm respublikasining bir guruh mas'ul xodimlari, chunonchi, XKP MQ kotibi Odinaev, ichki ishlar noziri Abdusalomov, Turkiston va Buxoro vakillari: Xo'janov, Asfandiyorov va boshqalar yagona Turkistonni bo'lib tashlash maqsadga muvofiq emas, deb e'tiroz bildirdilar. Shuningdek, 1924-yil 8-mayda RKP(b) Markaziy Qo'mitasiga "Xorazmda milliy masalani hal etish to'g'risida xat" kelib tushdi. Bu xatda ham Xorazm respublikasini bo'lib yuborish maqsadga muvofiq emas, deyilgan edi. Ha,

o'lka xalqlari milliy chegaralanish siyosatiga qat'iyan qarshi edilar, biroq mahalliy xalqlarning talab va takliflari inobatga olinmadi. Aksincha, 1924-yil 12-iyulda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosi "O'rta Osiyo respublikalarida milliy chegaralanish to'g'risida"gi masalaga yana qaytib, uni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi. 1924-yil 25-sentabrda RKP(b) MQ Siyosiy Byurosi, 9 va 11-oktabrda RKP(b) Markaziy Qo'mitasi bu masalani ko'rib chiqib, milliy chegaralashni rasmiylashtirishni maqsadga muvofiq deb topadi. Bu qaror 14-oktabrda SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi tomonidan ham ma'qullanadi. Shu tariqa, Sovet hukumati, RKP(b) MQ va uning joylardagi mahalliy tashkilotlarining 1920-1924yillar davomida O'rta Osiyoda olib borgan, xalqqa katta va'dalar berishni ko'zda tutgan "lenincha milliy siyosat"ni hayotga tadbiq etish bobidagi amaliy ishlari yakun topdi. Nihoyat, 1924-yilning 27-oktabrida bo'lib o'tgan SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi II sessiyasida O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o'tkazish tadbirlari to'la ma'qullandi. Shunday qilib, hukmron Markaz sa'y-harakatlari orqasida O'rta Osiyoning siyosiy jug'rofiyasi sun'iy ravishda o'zgartirildi. O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi. O'zbekistonSSR TurkmanistonSSR O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR Qirg'izlar yashagan hududlar RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyati Qozoqlar yashaydigan tumanlari RSFSR tarkibida Qozog'iston ASSR Qoraqalpoqlar yashaydigan hududlar Qozog'iston ASSR tarkibida Qoraqalpoq muxtorviloyati. Natijada yagona Turkiston xalqlari bir-biridan sun'iy ravishda uzoqlashtirildi. Bu hol sovetlarga o'lkada o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi.

O'zbekiston SSR Milliy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR tashkil etildi. O'zbekiston SSR hududida butun hokimiyat O'zbekiston SSR sovetlarining ta'sis qurultoyiga qadar Muvaqqat inqilobiy qo'mita ixtiyoriga berildi. Sobiq Buxoro respublikasi hukumati raisi, tanikli davlat arbobi Fayzulla Xo'jaev O'zbekiston SSR Inqilobiy qo'mitasi raisi etib tasdiqlandi. O'zbekiston SSR

tarkibiga quyidagi hududlar kiritildi: sobiq Turkiston ASSR dan 9 ta u'yezd, 133 tuman va 7 qishloq okrugi; sobiq Buxoro respublikasining 9 ta tumani; sobiq Xorazm respublikasining 23 ta tumani. O'zbekiston SSR tashkil etilgan paytda uning hududi 312394kv.km.ni, aholisi 4 mln. 447 ming 55 kishini tashkil etar edi. 1926-yil ma'lumotlari bo'yicha milliy tarkibiga ko'ra aholining 74,2 foizini o'zbeklar, qolganini esa boshqa xalqlar vakillari tashkil etar edi.

1924-yil 5-dekabrda Inqilobiy Qo'mita butun O'zbekiston xalqiga murojat qilib, O'zbekiston SSR tuzilganligini, uning tarkibiga Tojikiston ASSR kirganligini ma'lum qildi. Milliy chegaralanish bilan bir vaqtda iqtisodiy bo'linish ham o'tkazildi. Sobiq Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalariga tegishli barcha boyliklar yangi milliy respublikalar o'rtasida qayta taqsimlandi. Bu ishlar Sovet hukumati tomonidan maxsus tuzilgan O'rta Osiyo tugatish komissiyasi boshchiligida amalga oshirildi. 1925-yil 13-fevralda Buxorodagi "Xalq uyi"da Butun o'zbek sovetlari birinchi qurultoyi ochildi. Qurultoy "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to'g'risidagi Deklaratsiya"ni qabul qildi. Qurultoyda davlat hokimiyati oliy organlari tuzilganligi rasmiylashtirildi. O'zbekiston SSR Sovetlari MIQ Raisi lavozimiga farg'onalik dehqon, "Qo'shchi" uyushmasi rahbarlaridan biri Yo'ldosh Oxunboboev saylandi. O'zbekiston SSR hukumati - Xalq Komissarlari Kengashi Raisi lavozimiga Fayzulla Xo'jaev tasdiqlandi. Samarqand shahri O'zbekiston SSRning poytaxti etib belgilandi. 1930-yilda poytaxt Toshkentga ko'chirilgan. Milliy chegaralanish davrida O'rta Osiyoda faoliyat ko'rsatib kelgan partiya, komsomol va xo'jalik tashkilotlarida ham bir qator tashkiliy o'zgarishlar amalga oshirildi. Sobiq Turkiston, Buxoro va Xorazm kommunistik partiyalari, komsomol va xo'jalik tashkilotlari, kasaba uyushmalari qayta tashkil etildi. O'zbekiston kompartiyasi I ta'sis s'yezdi 1925-yil 8-fevralda Buxoroda ochildi. S'yezdda O'zbekiston Kommunistik (bolsheviklar) partiyasi tashkiliy jihatdan rasmiylashdi. Uning Markazqo'mi saylandi. V.I. Ivanov va A. Ikromov (1927-yildan birinchi kotib) Markaziy Qo'mitaning mas'ul kotiblari etib

saylandilar. Shu yili O'zbekiston komsomoli (O'z JSM), respublika kasaba uyushmalari, ularning rahbar organlari ham tuzildi. 1925-yil mayda O'zbekiston SSSR tarkibiga kiritildi. SSSR Konstitutsiyasi, uning asosiy qonun-qoidalari O'zbekiston SSR hududida ishlaydigan bo'ldi. 1927-yilda qabul qilingan O'zbekiston SSRning birinchi va 1937-yildagi Konstitutsiyasi ham amalda SSSR Konstitutsiyasining ko'chirma nusxasi edi. Chunki O'zbekiston qog'ozdagi "suveren" respublika bo'lib, amalda Markazga tobe bir o'lka edi, xolos. U o'z xalqining milliy manfaatlariga oid biror-bir dolzarb, hayotiy ahamiyatga molik masalani ittifoq hukumatidan xoli, mustaqil hal eta olmasdi. Binobarin, respublikaning ichki va tashqi siyosatiga daxldor barcha masalalar faqat Markaz xohish-irodasi bilangina hal etilardi. Hatto O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid masalalar ham ittifoq hukumati tasarrufida edi. Masalan, 1929-yilda Tojikiston ASSR O'zbekiston SSR tarkibidan chiqarilib, Tojikiston SSRga aylantirildi hamda SSSR tarkibiga olindi. Shuningdek, 1936-yilga kelib avval Qozog'iston ASSR, keyin RSFSR (1932-1936-yil) tarkibida bo'lgan Qoraqalpog'iston muxtor viloyati muxtor sovet sotsialistik respublikasiga aylantirilib, O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. Shunday qilib, qog'ozda suveren respublika sifatida shakllantirilgan, hukmron sovet imperiyasi tarkibiga kirgan O'zbekiston SSR amalda Markazga to'la bo'ysunuvchi, arzon xomashyo mahsulotlari yetkazib beruvchi o'lka bo'lib qolaverdi.⁴⁹

3.2. O'zbekistonda millatlararo mojarolarni hal etishda milliy madaniy markazlarning o'rni va ahamiyati.

80-yillar oxirlariga kelib O'zbekistonda yashovchi turli millat va elatlarning milliy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash hissini ortganligi, turli milliy-madaniy markazlarni ochilishiga sabab bo'ldi. O'zbekiston hukumatining maxsus qarori bilan Respublika madaniyat vazirligi qoshida 1989-yilda Respublika millatlararo madaniy markaz tashkil etildi.

⁴⁹ WWW E-tarix.uz/136-milliy chegara.html

Mavjud milliy-madaniy markazlarga tajribali, taniqli olim, ziyoli, san'atkorlar kela boshladi, ular qoshida professional va badiiy havaskorlik guruhleri paydo bo'ldi. Ayniqsa, rus, koreys, qrim-tatar, turk, qozoq, nemis, tojik, uyg'ur guruhlarining faoliyati juda samarali bo'ldi. Bunday markazlar qoshida u yoki bu millat tilini, adabiyotini o'rgatuvchi kurslar ochila boshlagan.

Biroq, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar ro'y berayotgan bir sharoitda Respublika millatlararo madaniy markazi zamon talablari darajasida faoliyat olib bora olmay qoldi, o'zining huquqiy statusini o'zgartirmasdan turib bunday masalalarni hal eta olmas edi. Shu sababli 1993-yil 13-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Respublika millatlararo madaniyat markazi Respublika baynalminal madaniy markaziga aylantirildi. Qarorda markazning milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi mustaqil muassasa ekanligi ta'kidlandi. Ayni paytda, ushbu muassasa davlat organlari va jamoat tashkilotlariga O'zbekistonda istiqomat qiluvchi turli millat, elatlar madaniy ehtiyojlarini o'rganishga ko'mak berishi ham belgilab berilgan. O'zbekiston baynalminal madaniyat markazining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- milliy madaniy markazlarga amaliy va uslubiy yordam berish, ular faoliyati ustidan nazorat o'tkazish hamda ishlarini muvofiqlashtirish;
- respublikada yashovchi millatlar va xalqlar milliy madaniyatlarini tiklash va rivojlantirish, urf-odatleri, madaniy, ma'naviy qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishini ta'minlashga ko'mak berish;
- yaqin va uzoq xorij davlatlaridagi milliy va baynalminal madaniy markazlar bilan aloqalar o'rnatish va rivojlantirish;
- millatlar va xalqlar o'rtasida baynalminal aloqalarni mustahkamlash, millatlararo munosabatlarni yanada kuchaytirish.

Respublika baynalminal madaniy markazi 1995-yilda "Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar madaniyati" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini, 1996-yilda "Xalq birligi" harakati bilan birgalikda

“O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida” nomli kitobni nashr ettirdi, “Bir daraxtning novdalari mavzusida ko'rgazma tashkil etildi va unda 11 millatga mansub jami 58 ta vakil qatnashdi.

O'zbekistonda yashovchi muayyan bir millat vakillarining milliy madaniy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi jamoat tashkilotlari - milliy madaniy markazlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining jamoat tashkilotlari to'g'risidagi amaldagi qonunlariga hamda o'z nizomiga asoslangan holda faoliyat ko'rsatadi. Milliy madaniy markazlar muayyan millatga xos bo'lgan milliy madaniyat, til, urf-odat, an'ana va taomillarni o'rganish, saqlab qolish va rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan O'zbekiston fuqarolarini ixtiyoriy ravishda birlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining “Nodavlat va notijorat tashkilotlar to'g'risida”gi qonuni (1999-yil 14-aprel)ga asoslangan holda tuziladi. Nizom tegishli adliya tashkilotlari (Adliya vazirligi yoki viloyat va shahar adliya idoralari) tomonidan ro'yxatga olinadi. O'z faoliyatini bevosita yoki jamoalardagi bo'limlari orqali O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshiradi.

Dastlabki Milliy madaniy markazlar koreyslar, qozoklar, yahudiylar, armanlar tomonidan respublika viloyatlarida 1989-yilda tuzildi. Bu markazlarning chinakam rivojlanishi va ravnaq topishi O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin boshlandi. O'zbekiston mustaqilligi munosabati bilan ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Natijada Milliy madaniy markazlar soni yil sayin ortib bordi. Agar 1992-yil 10 ta Milliy madaniy markazlar olib borgan bo'lsa, 1995-yilda ularning soni 72 taga, 2003-yilga esa 135 ta hozirgi kunda milliy markazlar soni 145 taga etdi. Ular respublika madaniy markazlari, viloyat, shahar, tuman madaniy markazlaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasida yashovchi turli millat vakillarini respublika ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash - Milliy madaniy markazlar faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, xorijiy mamlakatlardagi turdosh tashkilotlar hamda tarixiy vatanlari bilan do'stlik, hamkorlik, madaniy-ma'rifiy aloqalar o'rnatish va hamdo'stlik aloqalarini

rivojlantirish, Respublika baynalminal madaniyat markazi, manfaatdor vazirliklar, idoralar, davlat va jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda fuqarolar hamjihatligi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish markazning asosiy vazifalari bo'lib hisoblanadi. Nizomda belgilangan maqsad va vazifalarga erishishda markazlar quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi: musiqa va teatr studiyalarini, ona tili, tarix, yozuv, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr va rassomchilik san'ati, milliy urf-odatlar va hunarmandchilik, milliy sport va o'yinlar turlarini o'rganish bo'yicha o'quv guruhlar va yakshanba maktablarini amaldagi qonunchilikka muvofiq tuzadi; milliy madaniyat, milliy til, milliy san'at turlari va milliy urf-odatlarni o'rganish va targ'ib qilish maqsadlarida seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, festivallar va uchrashuvlarni, hor va badiiy jamoalarni tashkil etadi. Milliy madaniy markazlar faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 13-yanvardagi qarori bilan tashkil etilgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi muvofiqlashtiradi.

3.3.O'zbekiston fuqarolarida millatlararo mojarolarni hal etishda

“Ommaviy madaniyat” (shovinizm, millatchilik, mahalliychilik) ga qarshi chiquvchi imunitetni shakllantirish masalalari.

Bugungi kunga kelib, muayyan mamlakatni zabt etish, biror xalqni bo'ysindirish vositalari tubdan o'zgardi. Ilgari bu maqsadlarga erishish uchun qanchadan qancha qurol-aslahalar, qimmat-baho texnika, minglab askarlar va ancha-muncha vaqt ham kerak bo'lar edi.

Hozirda esa biror mamlakat yoki xalqni bo'ysindirish uchun ommaviy axborot vositalarining o'zi kifoya qilmoqda. Kuch ishlatish, majburlash, zo'ravonlik axborot orqali ta'sir qilish, odamlarni biror bir g'oyaga ishontrish, ongni boshqarish texnologiyalariga o'rin bo'shatyapti.

Kuch orqali maqsadga erishish insoniyat tomonidan birdek qoralanadi, chunki bunda insonga jismoniy og'riq, shikast, moddiy zarar yetkaziladi.

Ishontirish vositasida harakat qilayotganlarni esa biror narsada ayblash qiyin, zero, ular targ'ib qilayotgan g'oyalari ortida qanday manfaatlar yashiringanini bilish oson emas. Vaholanki, so'z, fikr, axborot orqali inson tafakkurini zabt etish ham xalq, mamlakat, hududni bosib olishning biroz madaniylashgan ko'rinishi hisoblanadi, biroq bunda istilochining kim ekani noma'lum bo'ladi, hatto aholi o'zini bosib olish uchun kim kurash olib borayotganini anglamaydi ham. Bu kurash yashirin ravishda, zimdan oshirilgani bois, unga uyushqoq holda qarshilik ko'rsatib bo'lmaydi, aynan shu omil bunday qarashlarning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Gegemoniyaning bu shakli "madaniy gegemoniya"(ustunlik, yo'lboshchilik) deb nomlanadi. Jahon miqyosida avj oldirilayotgan bunday madaniy gegemoniya kurashda aldanib qolmaslik uchun istilochilarning asl maqsad-muddaolarini bilish, qo'llanilayotgan uslub va vositalarni puxta o'rganish talab etiladi.

Insoniyat boshidan o'tkazgan inqiloblarni tadqiq etish asosida va insonning fe'l-atvori haqidagi bilimlar negizida XX asrning 30-yillarida yangi nazariya paydo bo'ldi. Bu nazariyaning muallifi— Italiya kompartiyasining asoschisi va nazariyotchisi Antonio Gramshi edi.

Gramshianing fikricha, gegemoniya jamiyatning "madaniy o'zagi" ga tayanadi. Bu o'zak insonning hayot, yaxshilik va yomonlik to'g'risidagi tasavvurlarini, bilim va tajribani, an'ana va ramzlarni o'z ichiga qamrab oladi. Madaniy o'zak qanchalik barqaror bo'lsa, mavjud tartibni saqlab qolishni ixtiyor etgan jamoaning irodasi ham shu qadar qat'iy bo'ladi. Madaniy o'zakning kuchsizlanishi yoki qo'porilishi esa jamoa irodasining yemirilishiga olib keladi va inqilob uchun zamin yaratadi.

Shu tariqa, madaniy gegemoniyaga erishish uchun madaniy o'zakka tajovuz qilinadi. Buning uchun tanklarga snaryadlarni tiqish, samalyotlarga bombalarni joylashtirish, avtomatlarni o'qlash talab etilmaydi, balki ko'p sonli kitob va risolalarda, jurnal va gazetalardagi maqolalarda madaniy o'zakni qo'poruvchi virus-g'oyalarni tarqatishning o'zi kifoya. Gramshi bu jarayonning qabih

mohiyatini bilmaslik oqibatida aholining unga qarshilik ko'rsatmasligiga ishora qilib, bunday o'zgarishni "passiv inqilob" deb ataydi.

Gramshi yashagan vaqtda bunday inqilob, asosan, ziyolilar ongida yuz bergan bo'lsa (chunki virus-g'oyalar bitiladigan adabiyotlar bilan birinchi navbatda ular tanishar edilar), hozirda ommaviy axborot vositalarining taraqqiy etilishi tufayli bunday inqilobni boshqa qit'alarda yashaydigan odamlar ongida amalga oshirish ham hech gap bo'lmay qoldi. Televizor har bir xonadonning to'rini egallagan, global axborot makoni shakllangan bugungi kunda, afsuski, madaniy gegemoniya uchun kurashdan, boshqacha aytganda, inson ongi va qalbi uchun kurashdan pana topish oson emas. Biroq, ishonchimiz komilki, bunday kurash usullari va vositalarini chuqur o'rganish ulardan himoyalaniş choralari ishlab chiqishda qo'l keladi.

Xo'sh, madaniy gegemoniya o'rnatishga, aniqrog'i, madaniy o'zakni kuchsizlantirishga shaylanganlarga Gramshi nima maslahat beradi? Tarixiy xotirani susaytirish, jamiyatdagi birdamlikka putur yetkazish, an'anaviy qadriyatlarni yemirish, xalqni manaviy ildizlaridan mahrum etish, sog'lom aqlni "o'chirish" kabi usullarni taklif qilgan Gramshining ro'yxatining uning zamonaviy "shogirdlari" yangi yo'nalishlar - axloqsizlikni targ'ib qilish, insonning eng tuban mayllari, hayvoniy hirslari, nafsini qo'zg'ash hisobiga "boyitdilar".

Ko'rinib turibdiki, madaniy gegemoniya negizida insonni mustaqil fikrdan mahrum qilish, uni o'zligini unutgan kimsaga, manqurtga aylantirish maqsadi yotibdi. Yangi ko'rinishdagi bunday mustamlakachilikning fojeaviy oqibati ham shunda.

Ha, bugungi kunda ayrim ijtimoiy jarayonlarni kuzatar ekanmiz, ular Gramshining madaniy gegemoniya haqidagi ta'limotiga uyg'un tarzda, uning ko'rsatmalariga mos ravishda kechayotganini tan olishga majbur bo'lamiz. Ayrim hollarda hattoki, bu jarayonlar Gramshi ta'limotiga tayangan holda maxsus ishlab chiqilgan va mohirona amalga oshirilgan, aniqrog'i, Gramshi nazariyasining

qanchalik to'g'ri ekanligini tajribalarda sinab ko'rish uchun o'tkazilgan operatsiya emasmikan, degan gumonga ham borasan kishi.

Gramshining nazariyasiga ko'ra, madaniy gegemoniya o'rnatish uchun sog'lom aqlni bartaraf etish talab etiladi. Sog'lom aql "o'chirilgach", insonni aql bovar qilmas afsona va uydurmalarga ham ishontirish mumkin bo'ladi. Ayni paytda, jahonda keng yoyilayotgan ana shunday cho'pchak mafkuralardan biri "yevrotsentrizm" deb ham ataladi. Nomidan ham ko'rinib turganidek, undan G'arbdan andaza olish, unga taqlid qilish taraqqiyotning bosh omili ekanligi uqtiriladi. Yevrotsentrizm hammaboplikka da'vo qilayotgan mafkura bo'lib, unga ko'ra, barcha xalqlar birxil taraqqiyot yo'lini bosib o'tadilar, faqat hozirgi kunda ular taraqqiyotning turli bosqichlarida turganliklari bois, bir-birlaridan farq qiladilar. O'z taraqqiyot yo'lini belgilayotgan jamiyatlarga nisbatan yevrotsentrizm mafkurachilari "G'arb izidan bor - bu eng yaxshi dunyolaridan biridir", deya "maslahat" beradilar.

Ko'pincha suhbat chog'ida ayrim ziyolilar noma'qul musiqa, noma'qul filmlarning, millatimiz ruhiyatiga, ma'naviyatiga zid urflarning yoshlarga, umuman odamlar ongi va qalbiga salbiy ta'siri haqida kuyunib gapirib qolishadi. Darhaqiqat, na ma'no va na mazmun bo'lgan, insoniy hislardan ko'ra, ko'proq past instinktlarni qo'zg'ovchi qo'shiq, g'oyaviy bo'sh, hatto zararli film kabi "ommaviy madaniyat" namunalariga hayotimizda ko'p duch kelamiz. Balki ayrimlarning chetdan yog'ilib kelayotgan bunday "asar" larning yo'lini to'sish yoki o'z "san'atkor" larimizning ijod namunalarini badiiy ko'rikdan (o'ziga xos senzurdan) o'tkazish haqidagi fikri to'g'ridir. Ammo butun dunyoda baloi azimga aylangan salbiy ko'rinishdagi "ommaviy madaniyat" ning tarqalishi bunday yo'l bilan oldini olib bo'larmikan? Kishilarni "Ommaviy madaniyat" qulligidan buyruq yoki farmon bilan xalos etish mumkinmikin? Prezidentimiz ilgari surgan "g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish mumkin", degan fikrning mazmun-mohiyati teranligi va doimo dolzarbligi shunda.

“Tabiiyki “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo’ravonlik, individualizm, egotsentrizm g’oyalarini tarqatish, kerak bo’lsa, shuning hisobidan boylik ortirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo’porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo’ymaydi”

"Ommaviy madaniyat" G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbda "populyar" yoki qisqartirilgan holda, "pop-kultura" (ya'ni "ommaviy madaniyat") deb atashadi. Garchi "madaniyat" deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra "ommaviy madaniyat" chinakam madaniyatning kushandasidir.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda "antikultura" ("g'ayrimadaniyat") degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun "ommaviy madaniyat" tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, "ommaviy madaniyat" aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. "Ommaviy madaniyat" shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti. Taassufli jihati shundaki, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham "ommaviy madaniyat" targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Agar "ommaviy madaniyat" dunyoga "ehson" etayotgan "pop-art" ("tasviriy san'at"), "pop-muzika", "pop-adabiyot" natijalariga qarab hukm yuritadigan bo'lsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi, yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi... Ular uchun ezgulikning o'zi yo'q. Jumladan, san'at - alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari "ommaviy madaniyat" tarafdorlarining g'ashini keltiradi. Ularcha, hamma san'atkor bo'lishi mumkin. Hamma narsa san'at atalishi mumkin. "Pop-art" - (ommaviy san'at) shu xulosa manbaida vujudga kelgan.

"Ommaviy madaniyat" tarkibidagi kishilarning dasturiy qarashi shundaki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e'zozlashadi. Ma'naviy dunyoni emas, maishiy-iste'molchilik his-tuyg'ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma'naviy pozitsiyasi - ma'naviyatni o'ldirish va "narsalarga qullik"ni rag'batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, "ommaviy madaniyat" maktabidan o'tgan avlod uchun hayotning ma'nosi - avtomobil, televizor, kompyuter va shunga o'xshash texnik vositalargagina ega bo'lishdir.

"Ommaviy madaniyat" da "Ommaviy musiqa" alohida o'rin tutadi. "Ommaviy musiqa" ni "Yangi rok" belgilaydi. "Yangi rok", ta'bir joiz bo'lsa, kuchaytirilgan ritmik tuzilmali musiqadir. Ya'ni jazavali ritm, zarb, shovqin ushbu musiqaning qiyofasidir. Bu musiqa tinglashga emas, balki vujud harakatiga, talvasali raqsga yo'naltirilgan. "Ommaviy madaniyat" dagi texnik-ijro vositalari musiqa imkoniyatlarini nihoyatda toraytirmoqda, polifonizm - musiqiy sadolar boyligi va rang-barangligini yo'qqa chiqarmoqda.

Xullas, G'arb jamiyati ma'naviy hayotida inqiroz tushkunligi tufayli buzg'unchilik, ommaviy nevroz, axloqsizlik, tajovuzkorlik kabi holatlar namoyon bo'lib, tobora xatarli tus olmoqda. Zero, globallashuv jarayoni, zamonaviy kommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo, insonlararo muloqot kengayib borayotgan bir pallada Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy me'rosni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga bekami-ko'st yetkazib berish, yoshlarimizni aqlli, dono, baxtli va barkamol etib tarbiyalash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda turli g'oyalar, hayotiy qarash va qadriyatlar to'qnash kelgan paytda shaxs mas'uliyati, u tanlaydigan ijtimoiy orzu-umidlarning ahamiyati beqiyos darajada ortadi.

Shovinizm, ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jug'rofiy-siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashda namoyon bo'ladi. Davlat yetakchi mavqe

(davlat)ga ega bo'lgan, o'z millatini "oliy" millat deb e'lon qilgan millat hukmron ekspluatator sinflarining ideologiyasi va siyosati bo'lgan buyuk davlatchilik shovinizm, shovinizm va millatchilikning bir turidir.

Buyuk davlatchilik shovinizmi - (Shovinizm - fran. burjua millatchiligining o'ta reaksion formasi). Shovinizm siyosati boshqa millat va xalqlarga nafrat va dushmanlikni avj oldirishga qaratilgan. Shovinizm go'yo to'laqonli bo'lmagan boshqa millatlar va irqalar ustidan hukmronlik qilishga da'vat etilgan bir millatning alohidaligini ("mumtozligini") targ'ib etadi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi. Uning ifodachilari harbiy imperiyalardir. Bu imperiyalarning iqtisodiyoti bosib olingan hududlarni ekspluatatsiya qilar va hatto ularning hayotiy manbalari hisobiga yashar edi. Ayni chog'da bo'ysundirilgan xalqlarga ularga madaniy jihatdan va umuman milliy jihatdan norasoligi haqidagi halokatli g'oya singdirilar edi.

Buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilik bir-birini to'ldiradi, bular o'z davlati manfaatini ilgari surib, milliy qadriyatlarni tayyorlashda, milliy madaniyatlar va ma'naviy qadriyatlarni oyoq osti qilishda, avtoritar tuzum o'rnatishda, boshqa mamlakat xalqlarini itoatgo'y qilib saqlab turishda, hozir esa Sobiq Ittifoqni tiklash uchun qilayotgan harakatida, o'z ta'sir doirasini boshqa mustaqil davlatlarda saqlab qolish uchun intilishda, millatlar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik tug'dirishda, xalqaro-huquqiy me'yorlarni inkor etishda, tashqi iqtisodiy aloqalarni to'sishda, yangi mustamlakachilikni zo'rlab qabul qildirish harakatida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Prezident Islom Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida..." asarida shovinizmga "Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jug'rofiy-siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashida namoyon bo'ladi" deb ta'rif bergan (Karimov I.A. Asarlar. T.6. 65-bet). Bunday davlatlarga ko'proq iqtisodiy jihatdan zaif, ichki beqaror davlatlar nishon bo'ladi.

O'zbekistonni, avvalo Rossiya imperiyasi, keyin sovet imperiyasi yuritgan buyuk davlatchilik shovinizmi jafolarni tortgan hozirgi paytda XXI asr boshlariga kelib bu davr turlicha talqin etilmoqda. Bu talqinlarning 2 tasi haqida "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida..." asarida fikr yuritilgan:

1. "Birinchi andozaning" mualliflari, - deyiladi asarda, - ehtimol samimiy tarzda, mintaqa Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston muxtoriyati sifatida rivojlanib, o'z metropoliyasidan zarur rag'batlarni olib turar edi. Chunki podsho Rossiyasi mahalliy an'analar va asoslarni yo'q qilmagan va buzmagani holda o'lkaning burjuacha tadrijiy rivojlanishini rag'batlantirgan edi, deb hisoblaydilar". Ushbu guruh mualliflari mintaqada o'tkazilgan bolshevikcha tajriba, shu jumladan, milliy davlat chegaralanishi, iqtisodiyotning haddan tashqari ixtisoslashtirilishini keskin tanqid qiladilar va ularni Markaziy Osiyo mintaqasidagi hozirgi ziddiyatlarning asosiy sabablari, deb hisoblaydilar. Shu bilan birga ular kommunistik tuzumdan keyingi yangi Rossiya Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlashtiruvchi rolni o'ynash uchun juda mos keladi, degan g'oyani ilgari suradilar.

2. Boshqa fikrga ko'ra, mintaqadagi muammolarni o'lkaning mustamlaka o'tmishi keltirib chiqargan. Bu fikr tarafdorlari o'lkaning o'z tarixiy va milliy negizlariga qaytarishni taklif qiladi. Bunga musulmon davlatlarga ergashgan, ular bilan yaqinroq integratsiyaga kirishgan taqdirdagina erishish mumkin, deb hisoblaydilar.

Ikkala nuqtai nazarda ilmiylikka nisbatan siyosat va ehtirolar ustunligi yaqqol ko'rinib turibdi. Bu nuqtai nazarlar ayni buyuk davlatchilik shovinizmi va agressiv millatchilikning hurujlari tufayli kelib chiqqan.

Pansovetizm buyuk davlatchilik shovinizmining o'ziga xos ko'rinishidir. Buyuk davlatchilik shovinizmi bugungi kunda pansovetizm bilan o'ziga xos tarzda qo'shilib ketgan. Pansovetizm tushunchasi uzoq vaqt davomida bir ittifoq doirasida yashash natijasida ijtimoiy-madaniy hayotda yuzaga kelgan muayyan yaqinlik,

o'xshashlik, umumiylik, iqtisodiy aloqadorlik va bog'liqlikni mutlaqlashtirishga asoslangan.

III bob bo'yicha xulosalar

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni rivojlantirish uchun barcha huquqiy asoslar va zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bag'rikenglik madaniyatini tarbiyalash va siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ko'p millatli mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar yurtimizda istiqomat qiluvchi milliy guruhlar etnik madaniyati, urf-odatlarini, udumlarini saqlab qolish, rivojlantirish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, madaniy-ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hozirgi tez su'ratlar bilan shiddatli o'zgarishlar sodir bo'layotgan, jamiyat yangilanayotgan, globallashuv jarayonlarining har bir mamlakat muhitiga ta'siri kuchayayotgan sharoitda murakkab muammoga aylanishi tabiiydir.

Ko'p millatlilikni salbiy hodisa sifatida baholayotgan yuqoridagi milliy siyosat modellaridan farqli ravishda, o'zbek milliy siyosat modelida uni yaratuvchilik qudratiga ega omil sifatida tan olish milliy mansubligidan qat'iy nazar fuqarolarning tengligini ta'minlash, ijtimoiy hayotdagi teng huquqlik ishtirokini kafolatlash tamoyillariga amal qilinadi.

Respublikamizda millatlararo totuvlikni ta'minlash orqali tinchlik va hamjihatlikni tobora mustahkamlab borish g'oyasi davlatimiz rahbarining doimiy diqqat markazidadir Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida bu borada shunday deyiladi: "Bu hayotning shafqatsiz bir qonuniyati bor. Ya'ni tarixning murakkab va hal qiluvchi burilish pallasiga har qanday milat va elat o'z ahilligi va bir damligini saqlab, o'z milliy manfatlari yo'lida qat'iyat bilan turmasa, mas'uliyat va xushyorligini yo'qotadigan bo'lsa, oxir oqibatda o'zining eng

katta tengsiz boyligi bo'lishi mustaqilligi va ozodligidan judo bo'lishi shubhasiz".⁵⁰

Har bir mamlakatda turli millat vakillarining mavjudligi azal azaldan unga o'ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'ziga xos qadriyatlari ham bor.

Umumiy qadriyat va xususiy manfaatlar bir-biriga zid kelib qolishi yoki uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda muayyan mamlakatdagi milliy siyosat muhim ahamiyat kasb etadi.

Prizident I. A. Karimov O'zbekistonning bu boradagi o'ziga xos siyosatini bayon etib, ta'kidlaganidek: "Respublika aholisi o'rtasida ko'pchilikni tashkil qiladigan burchi ona tilining, o'z milliy madaniyati va tarixini tiklashdangina iborat emas, balki birgalikda hayot kechiruvchi kam sonli xalqlarning taqdiri ularning o'ziga xos madaniy-ma'naviy xususiyatlarini saqlab qolish uchun, kamol topishi va o'zligini namoyon etishi uchun ularga teng sharoit va imkoniyatlar yaratib berish borasida mas'ul bo'lishdan ham iboratdir".⁵¹

Albatda, bunday muhit millatlararo munosabatlarda turli muammolar tug'ilishiga aslo yo'l qo'ymaydi va Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi umummilliy g'oyalarni hamkor va hamjihat bo'lib amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

⁵⁰ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".-T.: "Ma'naviyat", 2008. 51-52-betlar.

⁵¹ Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".-T.: "Ma'naviyat", 2008. 51-52-betlar.

XULOSA

Shu aziz Vatan - barchamizniki", "O'zbekiston - yagona uyimiz". Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan aytilgan bu hikmatli da'vatlarning ma'no-mohiyati bugun xalqimizning, millatidan qat'iy nazar, shu yurtda yashayotgan har bir insonning hayotidan mustahkam o'rin egalladi, tom ma'noda qalb amriga aylandi. Tobora globallashib va murakkablashib borayotgan bugungi davrda hayotning o'zi bizga turli millat, e'tiqod va din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlik hukm surgan sharoitdagina umumiy xonadonimiz bo'lgan Vatanimiz va jamiyatimiz, har birimizning oila-ro'zg'orimiz, farzandlarimiz kelajagini ta'minlashga erishish mumkinligini ko'rsatib turibdi.

"Madaniyat" g'oyasi doimo ezgulikka, ma'rifatga, tinchlikka, go'zallikka chorlab kelgan. Dunyoni madaniyat, ma'naviyat qutqaradi. Dunyo sivilizatsiyalar tarixi bunga guvoh. Inson azal azaldan taraqqiyotining yuksak bosqichi tomon faqat va faqat madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat orqali intilgan. Zotan, madaniy-ma'rifiy yuksalishgina jamiyatni sivilizatsiyali millat, istiqbolni porloq qiladigan, insoniyatni har xil mafkuraviy xavf-xatarlar, g'oyaviy kurashlarni shafqatsiz ta'sirida omon saqlovchi muqobili yo'q kafolatdir. Madaniyat va sivilizatsiya insonlar turmush tarzining barcha sohalariga daxldor bo'lgan asosiy-ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Madaniyatni yuqori darajada bo'lishi, o'sha jamiyatda yashovchi shaxslarning ijtimoiy kelib chiqishi, iqtisodiy ahvoli va ma'naviy yetukligi bilan belgilanadi. Albatta, ma'naviy yetuklik o'z tarixini bilish, urf-odatlarga hurmat bilan qarash, millat ravnaqi yo'lida xizmat qilish kabi omillarni o'z ichiga oladi.

Yurtimizda istiqlolning ilk kunlaridan boshlab ma'naviy yuksalish masalasiga bu qadar katta va doimiy e'tibor qaratib kelinayotir. Mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarida aholining keng qatlamlari

qamrab olinmoqda. Avvalambor, yoshlarda Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash, milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar, millatlararo munosabatlarda totuvlik hamda bag'rikenglik fazilatlarining hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Odamlar qalbi va ongida ezgu niyat va insoniy tuyg'ular qaror topishi, jamiyatimizda olijanob fazilatlar ustuvor bo'lishiga erishish mustaqillikning ilk kunlaridan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. Tabiiyki, bunda yurtdoshlarimizning nafaqat bilimini oshirish, balki ular qalbida mustaqilligimizni mustahkamlash bilan bog'liq yangicha tafakkur, yangi g'oyalarni kamol toptirish, ularni yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va Vatanimiz taraqqiyotini ta'minlash yo'lida xayrli ishlarga rag'batlantirish, odamlar ongu shuurida hayotimizning turli sohalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarga daxldorlik, bunyodkorlik, kelajakka ishonch va shukronalik tuyg'ularini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda olib borilayotgan ma'naviy targ'ibot-tashviqot jarayoni zamirida yurtimizdagi turli millat, ijtimoiy toifa, kasbu korga mansub kishilarni ma'naviy tajovuzlardan asrash, ularni ogohlikka chorlash, mavjud xavf va tahdidlarning oqibatlarini anglab yetish, ular haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, eng muhimi, milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan tizimli va aniq maqsadli amaliy harakatlar mujassamdir. Zotan, "millatlararo totuvlik" tushunchasi - milliy g'oyamizning muhim tamoyillaridan biri. Yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobida ta'kidlaganidek, "milliy g'oyamiz shu yurtda yashayotgan barcha odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi degan yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi". Ana shu yuksak tushunchalar bilan birga, milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo

bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini teran targ'ib etish bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markazidan joy olgan.

O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligidan dalolatdir. Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir etishi ayni haqiqatdir.

Millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintqa va davlatlar milliy taraqqiyoti, shu joydagi tinchlik hamda barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Buni O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li davomida turli sohalarda erishayotgan yuksak marralari misolida yaqqol ko'rish mumkin. Binobarin, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "xalqimiz tinchlik va farovonlik, hamkorlik va hamjihatlik g'oyalarini maslak va maqsad etib yashamoqda".

O'zbekistonda 136 dan ziyod millat va elat vakillari yashaydi. Ana shu ko'p sonli millat va elat vakillarining birgalikda, hamkor va hamjihat bo'lib umr kechirishi natijasida ularning har biri ma'naviy va madaniy jihatdan boyib, o'zaro munosabatlar ta'sirida ko'p millatli xalqimizning turmush tarzi yanada yuksalmoqda. Boshqacha aytganda, millatlararo totuvlik g'oyasi jamiyatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning ma'naviy asosiga aylanmoqda. Bu g'oya - har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratib, uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etmoqda.

Madaniyat har qanday inqiroz, buhron, nizo, razil va yaroqsiz harakatlarni bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi. Aksincha qayerda madaniyatsizlik mavjud bo'lsa o'sha yerda razillik, adolatsizlik, millatchilik, milliy nizo, milliy ziddiyatlar sodir bo'laveradi. Shu ma'noda I.A. Karimov "Ma'naviyat- insonni

ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigon beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir", deb baholagan edi. Mustaqillik davrida xalqimiz azaldan orzu qilib kelgan millatlararo totuvlik, do'stlik, hamjihatlik, tinchlikka erishgan ekanmiz, endilikda bizning oldimizda turgan dolzarb vazifa - ana shu oliy ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni qo'ldan bermay, avaylab-asrab, ko'z qorachig'iday ehtiyot qilib saqlab qolish ustida doimiy harakat qilishimiz darkor. Bunga respublikamizda yashovchi har bir inson yoshidan, millatidan qat'iy nazar, o'z hissasini qo'shmog'i kerak. Buning uchun Milliy g'oya atrofida jipslashib, xalq bilan bamaslahat, bir tan-u bir jon bo'lib, halol mehnat qilib mustaqillikni yanada mustahkamlashimiz lozim.

Taklif va tavsiyalar

1. O'zbekiston ko'p millatli mamlakatlardan biri. Bu jarayonni yanada mustahkamlash uchun, millatlar va elatlar o'rtasida hamjihatlik, bag'rikenglik masalalarining samaradorligini oshirish uchun Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini tashkil etish.

2. Dunyoda bo'layotgan notinchliklar, turli millatlar o'rtasidagi nizolar va buning oqibatida vujudga kelayotgan muammolar haqida san'at va madaniyat orqali milliy mojarolarni oldini olishga qaratilgan qisqa metrajli video rolikar, imkon qadar badiiy filmlar, teatr va sahna ko'rinishlari yaratilmog'i kerak.

3. Respublikamizning turli hududlarida hali ko'plab ko'p millatli, ko'p elatli jamoalar mavjud. Shu boisdan ulardagi millatlararo munosabatlarining holatini aniqlash maqsadida yetakchi mutaxassislar ishtirokida konkret sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish lozim.

4 Millatlararo munosabatlarni yanada yuqori saviyada olib borish uchun oliy o'quv yurtlarida millatlararo mojarolarni oldini olishda madaniyatning o'rni fan sifatida o'qitilmog'i.

6. Mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillari mashhur adib, shoirlarning badiiy asarlari, shu xalqlar tarixiy Vatanlari haqida tarixiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib nashr etilishishini.

1. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.1. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

2. Karimov I.A. Yashash va o'qish. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. - 100 b.

3. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.2. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

4. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.3. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

5. Karimov I.A. Vatan va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.4. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

6. Karimov I.A. Vatan va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.5. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

7. Karimov I.A. Vatan va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.6. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

8. Karimov I.A. Vatan va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.7. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

9. Karimov I.A. Vatan va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.8. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

10. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.9. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

11. Karimov I.A. Vatan va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.10. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

12. Karimov I.A. Vatan va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.11. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

13. Karimov I.A. Vatan va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.12. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

14. Karimov I.A. Vatan va dunyo kelgusi yoshlarining o'zaro munosabatlari. T.13. - O'zbekiston, 1996. - 300 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lid xizmat qilish-eng oliy saodatur. – T.: O'zbekiston, 2015.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996. – 380 b.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996. – 366 b.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – T.: O'zbekiston, 1996. – 349 b.
7. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. – T.: O'zbekiston, 1997. – 382 b.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. T.6. – T.: O'zbekiston, 1998. – 429 b.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999. – 410 b.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000. – 528 b.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – T.: O'zbekiston, 2001. – 432 b.
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002. – 430 b.
13. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 320 b.
14. Karimov I.A. Tinchlik va havfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga,

hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – T.: O'zbekiston, 2004. – 400 b.

15. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. – 448 b.

16. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. T.14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 280 b.

17. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. – T.: O'zbekiston, 2007. – 320 b.

18. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. – T.: O'zbekiston, 2008. – 368 b.

19. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. T.17. – T.: O'zbekiston, 2009. – 280 b.

20. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. T.16. – T.: O'zbekiston, 2010. – 280 b.

21. Karimov I.A. Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarilish sari. T.18. – T.: O'zbekiston, 2010. – 262 b.

22. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir. T.19. – T.: O'zbekiston, 2011. – 348 b.

23. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. T.20. – T.: O'zbekiston, 2012. – 320 b.

24. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat'iyat bilan davom ettirish yo'lida. T.21. – T.: O'zbekiston, 2013. – 416 b.

25. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T: O'zbekiston, 2010. – 56 bet.

26. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T: O'zbekiston, 2011. – 56 bet.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Ochildiyev Abduvohid. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar.-T.: «O'zbekiston» -2204.-133
2. Абдулатипов Р.Г. Человек. Нация, Общество. -М.: Политиздат, 1991.-224 с.
3. Azizxo'jayev A.A. Demokratiya-xalq hokimiyati demakdir.-T.: Sharq, 1996.-23 b.
4. Арипов.М.К. Социальная утопия как течение общественно-философской мысли в Средней Азии.-Т.: Фан,1989.
5. Атамирзаев О. Генштеке В.Муртазаева. Р. Узбекистан многонациональный историко-демографический аспект.-Т.: Ибн Сино,1998.-159. с.
6. Атамуродов С. Национальное самосознание и интернациональное воспитание. -Т.: Узбекистон,1991.-124 с.
7. Axmad Zakiy Validiy To'g'on. Bo'linganni bo'ri yer: Turkiston xalqlarinig milliy mustaqilligi uchun kurashi tarixidan: Xotiralar-Boshqird tilidan Sh.Turdiyev tarj.-T.: Adolat,1997, 280 bet.
8. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturini " amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar).-T.:SHarq,1998.-184 bet.
9. Boboyev H., G'ofurov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot.-T.: Yangi asr avlodi, 2001.-212 b.
10. Гелдиева А.Ч. Национальная культура и личность. -Т.: Узбекистан, 1993.
11. Дадахонова К.Х.Рахимов С. Проблемы интернационализации и межнациональная справедливость. -Т.: Узбекистон,1992.
12. Джунусов М.С. Национализм в различных измерениях. -Алма-ата, Казахстан, 1990.-200 с.

13. Jumayev R.Z. Davlat va jamiyat: Demokratlashtirish yo'lida.-T.: Sharq, 1998
- Ibrohimov. A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi.-T.: O'zbekiston, 1996.
14. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari.-T.: Sharq, 1996.-144 b.
15. Islom: bag'rikenglik va mutassiblik.-T.: Universitet, 1998.-128 b.
16. Karimov B., Mira'zamov K. Millat ravnaqi va til muammolari. -T.: Fan, 1993.
17. Karimov R.K., Karimov A.T. Milliy model muammolari.-T.: Uzbekiston, 1993. -64 b.
18. Millatlararo hamjihatlik-barqarorlik omili.-T.: 1999.-266 b.
19. Milliy g'oya-bizning g'oya.-T.: 2001.-139 b.
20. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.:2000.-80 b.
21. Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at.-T.: SHarq, 2006.-528 b.
22. Mustaqillik-bu xuquq. (Ma'sul muharrir va so'z boshi muallifi: A.Saidov)-T.: O'zbekiston, 1997. 224 b.
23. Нишанов М.Н. Обновление духовной жизни наций. -Т.: Фан, 1991.-106 с.
24. Нотсиональный отношения. Словар (Под общей редакция А.Л. Калашникова).-М.: Владос, 1997. -208 с.
25. Тоффлер Э. Третья волна. -М.: Аст, 1999.-784 с.
26. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993-224-bet.
27. Шермухамедов С. На языке единства. -Т.: Ўзбекистон, 1991. 187 с.
28. Yusupov E., Tulenov J., G'ofurov Z. Milliy masala bo'yicha falsafiy suhbatlar.-T.: Fan, 1990.-142 b.
29. Xonazarov Q. Mustaqillik va milliy munosabatlarning rivojlanishi. -T.: "O'AJBNT" Markazi, 2001. -72 b.
30. O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida. -T.: Universitet, 1996. - 168 b.
31. O'zbekistonning yangi tarixi. K.3. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -T.: SHarq, 2000-560 b.
32. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, madaniyatlar va mafkuralar.-T.: SHarq, 1997.-160 b.